



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Postda На посты

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

2023-yil

12-oktabr

payshanba

№ 41 (4631)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

XAVFSIZ

HUDUDLAR SONI ORTMOQDA

NORIN TUMANI

Tumanda 57 ta mahalla bo'lib, 173 ming nafar aholi istiqomat qiladi. Mahallalar tinchligi, osoyishtaligini ta'minlash maqsadida profilaktika inspektorlari har bir hududda ko'ngildagidek xizmat olib borishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan. Ularni xizmat uylari bilan ta'minlash bosqichma-bosqich davom etmoqda.

4



UZUN TUMANI



Shu kunlarda respublikamizning barcha hududlarida bo'lgani singari, Uzun tumanida ham «Xavfsiz hudud» profilaktik tadbiri uyushqoqlik bilan o'tkazilmoqda. Huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, jinoyatlarni fosh etishga qaratilgan mazkur tadbirda ichki ishlar organlari xodimlari bilan birdek boshqa huquq-tartibot idoralari, korxonalar va muassasalar vakillari, mahalla faollari va yoshlar ham ishtirok etmoqdalar.

7

▶ ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИК

МИГРАЦИЯ: ИСТИҚБОЛ ВА ИМКОНИЯТ

Сўнги йилларда ички ишлар органлари соҳавий хизматлари вакиллари Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлигидаги ҳамкасблари билан ўзаро тажриба алмашиб, яхши ҳамкорлик алоқаларини ўрнатмоқда. Бу, ўз навбатида, хизмат самарадорлигини оширишда муҳим ўрин тутиб, соҳага татбиқ этилаётган янгилеклардан ўз вақтида хабардор бўлиш ва уларни амалиётда қўллаш имконини бермоқда.

Яқинда Тошкент шаҳрида Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлигига аъзо мамлакатлар миграция органлари раҳбарлари кенгашининг навбатдаги йигирма еттинчи мажлиси бўлиб ўтди.

Тадбирда Озарбайжон, Арманистон, Беларус, Қозоғистон, Тожикистон, Ўзбекистон ва Қирғиз Республикалари, Россия Федерацияси ҳамда Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлиги Ижроия қўмитаси, шунингдек, МДХга аъзо

Мажлис иштирокчилари МДХ доирасида мувофиқлаштирилган миграция сиёсатини олиб бориш, миграция соҳасига оид миллий қонунчиликни уйғунлаштириш, ноқонуний миграцияга қарши курашиш, меҳнат мигрантларини бир-

даги қарорлари ижросининг бориши ва натижалари кўриб чиқилди, устувор вазифалар белгилаб олинди. Меҳнат миграциясини тартибга солиш бўйича ўзаро тажриба алмашилди. Кенгаш томонидан МДХда миграция масалалари бўйича ҳамкорликнинг норматив-ҳуқуқий базаси инвентаризацияси ўтказилди.

Кенгаш янги интеграциялашган ахборот тизимларини жорий этиш ва мавжуд ахборот алмашиш механизмларини такомиллаштириш бўйича чора-тадбирларни мувофиқлаштиришга катта эътибор қаратди. Иштирокчилар Кенгаш ва Комиссия йиғилишларининг муҳимлиги, кўриб чиқилаётган масалалар-



Улуғбек МУХАМЕДОВ,
ИИВ Миграция ва фуқароликни
расмийлаштириш бош
бошқармаси бошлиғи,
полковник.



MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO'STLIGIGA A'ZO DAVLATLARNING
MIGRATSIIYA ORGANLARI RAHBARLARI KENGASHINING 27-YIG'ILISHI
(2023-y. 28-sentabr, Toshkent sh.)

27-ЗАСЕДАНИЕ СОВЕТА РУКОВОДИТЕЛЕЙ МИГРАЦИОННЫХ ОРГАНОВ
ГОСУДАРСТВ – УЧАСТНИКОВ СОДРУЖЕСТВА НЕЗАВИСИМЫХ ГОСУДАРСТВ
(28 сентября 2023 г., г. Ташкент)

давлатларнинг Парламентлар аро Ассамблеяси делегациялари иштирок этди. Бундан ташқари, Кенгашда кузатувчи мақомида Туркманистон Республикаси, Касаба уюшмалари умумий конфедерацияси ва Евроосиё иқтисодий комиссияси вакиллари ҳам қатнашди.

Йиғилишни Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирининг биринчи ўринбосари, полковник Шавкат Раҳмонов очиб, меҳмонларни юртимизга ташири билан самимий қутлар экан, мамлакатимизда ҳуқуқ-тартиботни мустаҳкамлаш борасида амалга оширилаётган ишларга тўхталиб ўтди.

Шундан сўнг, кун тартибига мувофиқ, МДХга аъзо мамлакатлардаги миграция ҳолати, Ҳамдўстликка аъзо давлатларнинг 2019–2023 йилларга мўлжалланган ноқонуний миграцияга қарши курашиш бўйича ҳамкорлик дастурини амалга ошириш бўйича олиб борилаётган ишлар тўғрисидаги маърузалар муҳокама қилинди.

лаштирувчи миллий диаспоралар ва давлат органларининг ўзаро ҳамкорлиги сингари долзарб масалаларни муҳокама қилдилар. Шунингдек, МДХ мамлакатлари ҳуқуқ-тартибот органлари томонидан миграция ҳужжатларини қалбакилаштириш усулларини аниқлаш бўйича олиб борилаётган ишлар, ноқонуний миграциянинг олдини олиш юзасидан биргаликдаги ёки мувофиқлаштирилган профилактика, тезкор-қидирув ва махсус операцияларни ўтказиш тажрибаси тўғрисидаги маълумотлар тингланди.

Қолаверса, миграция хизматлари соҳасида ҳужжат айланмасини рақамли трансформация қилиш, ташқи меҳнат миграциясини тартибга солиш ва меҳнат мигрантлари хорижга чиқишидан олдин уларни қабул қилувчи давлат қонунчилиги, тили ва маданиятига ҳурмат кўрсатиш зарурлиги тўғрисида маълумот бериш билан боғлиқ масалалар ҳам ўрганилди.

Йиғилиш давомида МДХ олий органларининг миграция соҳаси-

нинг долзарблигини алоҳида таъкидладилар.

Тадбир якунида Кенгаш мажлисининг якуний ҳужжатлари имзоланди. Мажлис ўзаро англашув, ишонч ва тажриба алмашув руҳида ўтгани билан катта аҳамият касб этди.

Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, «Темурийлар тарихи» давлат музейи ва пойтахтимизнинг бошқа диққатга сазовор жойлари меҳмонларда унутилмас таассурот қолдирди.



Yuksak mukofot sohiblari

VATANGA MUHABBAT HISSI BIZGA KUCH BERADI

– deydi podpolkovnik Mirzohid Mirazimov

Pop tumani IIB Tezkor-qidiruv xizmati tezkor vakili, podpolkovnik Mirzohid Mirazimov eng ulug‘, eng aziz bayram – Mustaqilligimizning 32 yilligi arafasida Prezident farmoniga ko‘ra, «Sodiq xizmatlari uchun» medali bilan taqdirlandi. Cho-

tinchligini saqlashga katta hissa qo‘shdi.

– Xizmat faoliyatimizda turli xatarli vaziyatlarga, tahdidlarga duch kelamiz, – deydi qahramonimiz. – Vatanga muhabbat hissi, yurtdoshlarning osoyishta hayotini ta‘minlash mas‘uliyati har



rak asr umrning xalq tinchligi, osoyishtaligi yo‘lida safarbar etilishi katta sharaf. Tunu kun oromdan kechib, xalq xizmatida doimo shay turish yuksak jasorat.

Joriy yil boshidan buyon podpolkovnik M. Mirazimov o‘zgaralar mulkini talon-toroj qilishga qarshi kurashishda fidoyilik namunasini ko‘rsatib, fosh etilmay qolayotgan jinoyatlardan 4 tasi ochishda jonbozlik ko‘rsatdi. Shuningdek, 2 nafar qidiruvdagi shaxsning qonun hukmiga topshirilishiga munosib hissa qo‘shdi.

M. Mirazimov xizmat faoliyatini Pop tumani IIB Axloq tuzatish ishlari inspeksiyasi inspektori lavozimidan boshlagan bo‘lsa, keyinchalik tuman IIB tog‘li hududlarga xizmat ko‘rsatuvchi «Rezak» jinoyat qidiruv bo‘limida ishlab, hudud

qanday tahdidni yengib o‘tishda bizga kuch, madad beradi...

– Akam bilan faxrlanamiz, – deydi Mudofaa vazirligi faxriysi, iste‘fodagi serjant Murodjon Mirazimov. – U halolligi, rostgo‘yligi sabab oilamizda ham, hamkasblari orasida ham alohida hurmatga ega. Eng muhimi, hamma narsani akam bilan maslahatlashib qilaman va hech qachon bundan pand yemaganman.

...Beixtiyor xayolimizdan hammaga ham ana shunday faxru iftixor bilan yashash nasib etishi haqidagi tilak o‘tadi. Ona O‘zbekistonimizning ko‘plab farzandlari qatorida xizmatlari yuksak e‘tirof etilgan Mirzohid Mirazimov singari xodimlar bor ekan tinchligimiz bardavom bo‘laveradi.

Gulchehra BUVAMIRZAYEVA,
o‘z muxbirimiz.

Namangan viloyati.

SOHA FIDOYISI

YAXSHILIK YERDA QOLMAYDI

Ichki ishlar organlari xodimlari orasida butun faoliyatini yurt tinchligi, osoyishtaligini mustahkamlashga bag‘ishlagan fidoyi insonlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Yaqindagina IIV Moliya va moddiy-texnika ta‘minoti departamenti Xo‘jalik boshqarmasi alohida qo‘riqlash otryadi xavfsizlikni ta‘minlash guruhi komandiri lavozimidan, mayor unvoni bilan pensiyaga chiqqan Adham Yusupovni haqli ravishda ana shunday osoyishtalik posbonlaridan biri, deya ayta olamiz.



O‘qituvchi oilasida tug‘ilgan Adham tartib-intizomi, odobi bilan sinfdoshlaridan ajralib turardi. Yillar shamoldek o‘tib ketar ekan. IIV Akademiyasini muvaffaqiyatli tamomlab, sohada faoliyatini boshlagan qahramonimiz o‘zining xushmuomalaligi, rostgo‘yligi, qat‘iyati bilan rahbariyat va hamkasblari hamda o‘nlab shogirdlari o‘rtasida katta hurmat qozondi. Bu vazirlik rahbariyati, hamkasblari ishtirok etgan pensiyaga kuzatuv marosimida yaqqol ko‘zga tashlandi. Unda so‘zga chiqqanlar A. Yusupovning insoniy fazilatlarini, kasbga sadoqati haqida alohida to‘xtalib o‘tishdi. O‘z navbatida, mayor A. Yusupov yuksak hurmat va e‘tibor uchun vazirlik rahbariyatiga minnatdorlik bildirib, bundan keyin ham yurtimiz

osoyishtaligi, rivoji yo‘lida xizmat qilishga tayyor ekanini ta‘kidladi.

Umr yo‘ldoshi Gavhar Yusupova bilan farzandlarini ham o‘zlari singari yurt koriga yaraydigan, intizomli, ilmi insonlar etib tarbiyalagan bu oilaga ko‘pchilik havas qiladi.

Xalqimizda yaxshilik yerda qolmaydi, degan gap bor. Uzoq yillar o‘qituvchi bo‘lib yosh avlodga ilm-fan sirlarini o‘rgatgan otasi Ahror aka hayot bo‘lganida o‘g‘lining orttirgan obro‘-e‘tibori, hamkasblari orasidagi hurmati bilan haqli ravishda faxrlangan bo‘lardir.

Onasi Ozoda opa har kuni farzandlarini duo qilarkan, yurtimizga tinchlik-osoyishtalik, dasturxonimizga qut-baraka so‘rashni kanda qilmaydi. Zero, onalarning duolari ijobatdir...

O‘z muxbirimiz.

H I K M A T



Insofli va iqtidorli odamlar o‘z manfaatlarini qonuniy yo‘l bilan ta‘minlashni xohlaydilar. Ammo shundaylar ham borki, manfaatlarini to‘g‘ri yo‘l bilan emas, balki jahl, o‘g‘rilik va noshar‘iy vositalar bilan amalga oshirib, axloqqa zid ishlar bilan mashg‘ul bo‘ladilar. Shunday ekan, bunday ishlar-dan bizni man qilmoq uchun qonun lozimdir.

FITRAT.

IFTIXOR

O'ZBEK TILI JAHON
MINBARIDA

2020-yil kuz oyida Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasining 75-sessiyasi koronavirus pandemiyasi tufayli onlayn tarzda o'tkazilib, unda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev nufuzli tashkilot tarixida ilk marotaba o'zbek tilida nutq so'zladi.

Bu olamshumul voqea butun millatimiz qalbini cheksiz quvonch va faxru iftixor tuyg'ulariga limlim to'ldirib, o'zgacha bir g'urur, o'zgacha bir surur baxsh etdi.

Jahon ommaviy axborot vositalarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning so'zlagan nutqiga bag'ishlangan maqolalar e'lon qilinib, ularda mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar va ijobiy o'zgarishlar tilga olindi.

Jumladan, «Cumhuriyet» (Turkiya) gazetasi-ning o'sha yil 26-sentabr kungi sonida chop etilgan «O'zbekistonning murojaati va Turkiya» deb nomlangan maqolada shunday deyilgandi:

«O'zbekiston rahbari ilk marta rus yoki ingliz tilida emas, ona tili, o'zbek tilida murojaat qildi. Bu juda muhim edi. Nutq mazmunli bo'ldi. Meni ilgari surilgan takliflarning aniq va mazmunli ekanligi hayratga soldi.

U til va madaniyatga sinchkovlik bilan yondashadi. U o'zbek tilini davlat muassasalari, ijtimoiy soha va kundalik turmushda yagona rasmiy til sifatida qabul qiladi. Milliy mustaqillikka chin yurakdan e'tibor qaratadi. Uni mintaqaviy tashqi siyosat o'ylantiradi. U qo'shni mamlakatlar bilan siyosiy va savdo munosabatlarini rivojlantirmoqda».

NORIN TUMANI

XAVFSIZ

HUDUDLAR SONI ORTMOODA

(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

Joriy yilning o'tgan davrida oila-turmush doirasidagi jinoyatlarning oldini olish maqsadida «Turmush», muqaddam sudlangan shaxslar o'rtasida «Nazorat», mahallalarda «Xavfsiz hudud», «Xavfsiz mahalla», «Xavfsiz tun», tan jarohati bilan bog'liq jinoyatlar sodir etilmasligi uchun «Tig'» va boshqa profilaktik tadbirlar o'tkazildi. Bunday profilaktik tadbirlar tuman hududida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning



barvaqt oldini olishda muhim o'rin tutmoqda. Bunda ayniqsa, hududiy profilaktika inspektorlaridan mayor Sherzod Dehqonov, kapitan Dilmurod Mo'minov, katta leytenantlar Umidjon Erkinov, Murodjon Mullaboyev, leytenant Abduqahhor Hamidovlar ibrat namunasini ko'rsatib kelishmoqda.

– Yil boshidan buyon profilaktika inspektorlari tomonidan 22 ta jinoyat fosh etildi, qidiruvdagi 2 nafar shaxs ushlanib, jazo muqarrarligi ta'minlandi, – deydi tuman IIB HPB boshlig'i, podpolkovnik Abdug'afur Xudoyberdiyev. – Shuningdek, 8 330 nafar kishining huquqbuzarlik sodir etgani aniqlanib, ularga nisbatan tegishli tartibda ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirildi. Olib borilgan profilaktik ishlar natijasida 14 ta mahallada jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilmadi, 26 ta mahallada esa jinoyat salmog'i kamaydi.

JARAYON QIZG'IN

Tuman IIB Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'limi tomonidan biometrik pasport o'rniga ID-kartalarni joriy etish va rasmiylashtirish talablari ijrosini to'laqonli ta'minlash maqsadida targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilyapti.

Fuqarolarning arizalariga ko'ra, 7006 ta yangi namunadagi ID-kartalar rasmiylashtirilib berildi. Bu jara-

yonda bo'lim pasportchilari, safdorlar Lochinbek Otamirzayev, Zuhriddin Eshonqulov fuqarolar bilan xushmuomalalik bilan munosabatda bo'lib, aholi o'rtasida ichki ishlar organlariga nisbatan iliq taassurot uyg'otayotganini alohida ta'kidlash lozim.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, joriy yilning o'tgan davrida tumanga turli maqsadlarda kelgan 419 nafar MDH davlatlari fuqarosi vaqtinchalik qayddan o'tkazildi va belgilangan tartib asosida tuman IIB HPB inspektorlari orqali tekshirib chiqildi.

Norin tumani g'arbdan viloyatning Namangan va Uychi, shimoldan Uchqo'rg'on tumanlari, janub va sharqdan Andijon viloyatining Baliqchi va Izboskan tumanlari bilan chegaradosh.

TUNU KUN
XIZMATGA SHAY

Tuman IIB Navbatchilik qismi hududdagi tunu kun kriminogen vaziyatni baholab boradi. Sutkalik naryadlar va kuch-vositalarni safarbar qilib, osoyishtalikni ta'minlashni nazorat qiladi. Tuman markazi, savdo shoxobchalari, chorrahalar, odamlar gavjum bo'lgan joylarga o'rnatilgan kuzatuv kameralari navbatchilik qismiga integratsiya qilingani uchun mazkur hududlarning muntazam kuzatib borilayotgani osoyishtalikni ta'minlashda muhim omil bo'layotir.

Navbatchilik qismi xodimlari jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatlarni «issiq izida» fosh etishga munosib hissa qo'shib kelishyapti.

– «102» qisqa raqami orqali kuni-ga o'rtacha 10–15 ta murojaat kelib tushadi, – deydi Navbatchilik qismi navbatchisi, katta inspektor, mayor G'ofurjon Otaboyev. – Ziyrak xodimlar fuqarolardan kelib tushayotgan ariza va xabarlarini belgilangan tartibda ijroga qaratib, boradi. Vaziyatdan kelib chiqib, boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikni amalga oshiradi.

Navbatchilik qismining zamonaviy media jihozlar, avtomashinalar bilan ta'minlangani xizmat samaradorligini oshirishda qo'l kelmoqda.

Gulchehra BUVAMIRZAYEVA,
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.



YUKSAK MUKOFOT SOHIBLARI

MUVAFFAQIYATLAR OMILI – MEHNAT

– Oilasi qo‘llab-quvvatlab tursa, har qanday erkakning muvaffaqiyatga erishishi oson kechadi, – deydi Vatanimiz mustaqilligining 32 yilligi arafasida «Shuhrat» medali bilan taqdirlangan kichik serjant Alisher Tairov.



Samarqand viloyatining Kattaqo‘rg‘on shahrida tug‘ilgan Alisherning otasi Ziyadullo Tairov uzoq yillar yong‘in xavfsizligi bo‘limida ishlagan. O‘zi uchun doim o‘rnak bo‘lgan otasiga havas qilib, Alisher

ham umrini Vatan xizmatiga bag‘ishlashga qaror qildi.

Qahramonimiz 2003-yilda Buxoro avtomobil va yo‘llar texnikumini muvaffaqiyatli tamomlab, dastlab Kattaqo‘rg‘on shahar IIB huzurida-

gi Qo‘riqlash bo‘limida faoliyatini boshlagan. Hozirda Samarqand viloyati IIB JTSB PPX batalonining safdor xodimi sifatida xizmat olib bormoqda.

– Men bir joyda o‘tira olmayman, – deydi kichik serjant A.Tairov. – Xizmatim esa doimiy harakat bilan bog‘liq. To‘g‘ri, muayyan qiyinchiliklar bor. Lekin qaysi ishda mashaqqat yo‘q? Eng muhimi, natija har kuni ko‘rinadi, u xoh huquqbuzarliklarning oldini olish, xoh gumon qilinuvchini qo‘lga olish yoki boshqa har qanday harakat bo‘lsin. Xizmat faoliyatim davomida ko‘plab jinoyatchilarni qo‘lga olishga to‘g‘ri kelgan. Ko‘pincha PPX xodimlari bosqinchilik va talonchilik holatlari bo‘yicha gumon qilinuvchilarni qo‘lga olishadi. Shuningdek, oilaviy mojarolar, turarjoy binosida tinchlikni buzish, qo‘shnilar orasidagi nizoli holatlar bilan ham shug‘ullanishga to‘g‘ri keladi. Bir qarashda, chaqiruv

sabablari ahamiyatsizdek ko‘rinadi. Biroq eng oddiy janjal ham fojiga olib kelishi mumkin. Odamlarni qutqarishimiz kerak bo‘lgan vaziyatlar ham bo‘lgan. Bir safar o‘t o‘chiruvchilar yetib kelgunicha hushsiz holatda bo‘lgan fuqarolarni yong‘in yuz bergan xonadonlardan olib chiqqanmiz.

Qahramonimizning so‘zlariga ko‘ra, u muvaffaqiyatga oila a‘zolari – sevimli rafiqasi Viktoriya hamda qizlari Yana va Diananing yordami, qo‘llab-quvvatlashi tufayli erishgan.

– Yaqinlarim, do‘stlarim, hamkasblarim mukofot olganimdan xursand bo‘lishdi, – deydi kichik serjant Alisher Tairov. – Bu mukofot bizga to‘g‘ri yo‘lda ekanimizdan faxrlanish hissini tuhfa etadi. Shuning barobarida, zimmamizga katta mas‘uliyat yuklaydi.

Zamira BOLTAYEVA,
o‘z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.

ФАХРИЙЛАР – ФАХРИМИЗ

БАҲОСИ ЙЎҚ «ВАЗИФА»

Одатда соҳада кўп йиллар ишлаб, пенсияга чиққан киши аксарият ҳолатларда «янги вазифа» – набиралар тарбияси билан шуғулланади. Зурриётларига ҳаётни, ҳақиқий инсон бўлишни ўргатади. Аслида бобо ва бувиларнинг бу «вазифаси» чиндан ҳам бебаҳо. Ички ишлар органлари фахрийларининг ҳаёт йўли эса бўлакча. Унинг кўпчилиги пенсияга чиққандан сўнг ҳам уйда ўтиришни ўзларига эп кўрмайди. Жамиятнинг бошқа жабҳаларида фаолиятини давом эттириб, ёш ходимлардан билимини аямайди, тажрибалари билан ўртоқлашади.



Абдуқаҳҳор аканинг фикрича, «Бирор ишга киришсанг, уни имкон қадар яхши бажариш лозим, акс ҳолда бошламаган маъқул». Бу тушунчани унга ота-онаси болалиқдан сингдирган. Ҳарбий хизматдан сўнг А. Шерматов Тошкент давлат

университетида таҳсил олиб, бир неча йил қишлоқ мактабида ўқитувчи бўлиб ишлади.

Кейинчалик ёш ўқитувчини ички ишлар органларига хизматга таклиф қилишди. У дастлабки хизмат фаолиятини Улуғнор тумани ИИБ бошлиғининг

шахсий таркиб билан ишлаш бўйича ўринбосари сифатида бошлади. Бир неча йил ўтгач, туман ИИБ бошлиғининг биринчи ўринбосари этиб тайинланди.

“ АБДУҚАҲҲОР ШЕРМАТОВ АНДИЖОН ВИЛОЯТИ ИИБ ТИЗИМИДА ТУРЛИ МАСЪУЛ ЛАВОЗИМЛАРДА ХИЗМАТ ҚИЛДИ. 2004 ЙИЛДА БАЛИҚЧИ ТУМАНИ ИИБ БОШЛИҒИНИНГ БИРИНЧИ ЎРИНБОСАРИ ЛАВОЗИМИДАН ПЕНСИЯГА ЧИҚДИ. ХИЗМАТ ДАВОМИДА АБДУХОЛИҚ ЭРГАШЕВ, КОЗИМЖОН УСМОНОВ, МАРИБЖОН АСҚАРОВ, АЛИБЕК ОТАХОНОВ, ДИЛШОД АКРАМОВ КАБИ БИР ҚАТОР МУНОСИБ ШОГИРДЛАРНИ ТАРБИЯЛАДИ.

Абдуқаҳҳор ота пенсияга чиққанидан кейин ҳам уйда ўтира олмади. Улуғнор туманидаги «Шаҳриобод», «Оқ олтин», Бобур номидаги маҳалла фуқаролар йиғинларига раислик



қилди. 2018 йилдан буён эса набиралари тарбияси билан шуғулланмоқда. Турмуш ўртоғи Муяссархон опа билан уч ўғил, бир қизни вояга етказган Абдуқаҳҳор ота бугун ўн уч нафар неварга, бир нафар эваранинг суюкли бобожониси.

Катта ва кенжа ўғиллари Камолиддин ва Бобуржон тадбиркор. Иккинчи ўғли Баҳодиржон эса ота изидан борди. У патруль-пост хизмати ходимидан Улуғнор тумани ИИБ бошлиғи лавозимигача бўлган йўлни босиб ўтди, унвони подполковник. Қизи Мадинахон уй бекаси.

Борис КЛЕЙМАН,
ўз muxbirimiz.

■ Сырдарьинская область

ЭФФЕКТИВНЫЙ МЕТОД

Сардобинский район – один из самых отдаленных районов Сырдарьинской области, расположен на расстоянии почти в семьдесят километров от областного центра. Главные источники дохода населения – земледелие и животноводство. Трудоемкость этих направлений аграрного сектора и ненормированный рабочий день не являются помехой для жителей этого района. Прикипевшие душой к земле сардобинцы круглый год заняты своим хозяйством.



Жители района, будучи жителями, знают проблемы населения изнутри. Хоким Сардобинского района Акмал Мирзаев заострил внимание именно на этих аспектах.

К сожалению, среди наших сограждан встречаются те, кто привык жить, зарясь, на чужое добро. Выявлять таких людей, вести профилактику, привлекать к ответственности, оберегая покой законопослушных граждан, прямая обязанность сотрудников органов внутренних дел. Особенно это касается инспекторов профилактики, которые ежедневно находятся среди людей, общаются с каж-

На встрече было подчеркнuto, что в последнее время снижается количество тяжких преступлений, но есть еще много проблемных моментов в работе. Важно эффективно использовать метод «махаллабай». Необходим индивидуальный подход к социально уязвимым слоям населения, обеспечивать их занятость, создавать условия для полноценной интеграции в общество.



В качестве подобного примера приведена деятельность «пятерки» махалли Работ. За истекшее время здесь не совершено ни одного преступления, на учет взяты лица, предрасположенные к противоправным действиям, с ними налажена системная работа в плане трудоустройства, становления на путь исправления.

Особо отмечено значение спортивно-оздоровительных

и культурно-просветительских мер профилактического характера, проводимых в махаллях. Так, в ходе граждан «Дўстлик» по инициативе Сардобинского РОВД организованы соревнования по мини-футболу, легкой атлетике, волейболу, в которых участвовало более 400 юношей и девушек.

**Абдурахмон
МУСТАФОКУЛОВ,
соб. корр.**



PROFILAKTIK TADBIR

«BUMERANG» JINOYATCHILIKNI JILOVLAYDI

Farg'ona shahrida prokuratura, Milliy gvardiya hamda soliq organlari bilan hamkorlikda, keng jamoatchilik ishtirokida o'tkazilayotgan «Bumerang» maxsus-tezkor profilaktik tadbirlar davomida jinoyat va huquqbuzarlikka sabab bo'luvchi har qanday omillarga qarshi murosasiz kurash olib borilyapti.

Viloyat IIB Axborot xizmatining ma'lum qilishicha, 30 nafar shaxsning xatti-harakatida giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasi, fohishaxona saqlash va qo'shmachilik qilish, tovlamachilik, poraxo'rlik kabi

jinoyatlarning alomatlari borligi aniqlandi.

Tadbir davomida 160 gramm giyohvandlik moddalari, 1 ta pnevmatik pistolet, 5 dona flakonda kuchli ta'sir qiluvchi moddalar, 8 ta noqonuniy diniy materiallar,

3 ta bita, 5 ta pichoq va 1 ta bolta ashyoviy dalil tariqasida olindi. 8 nafar qimor o'yini tashkil qilgan, 6 nafar fohishalik bilan shug'ullangan hamda 6 nafar sovuq qurol sifatida foydalanish mumkin bo'lgan ashyolarni saqlagan shaxslarning huquqbuzarligi bo'yicha tegishli hujjatlar rasmiylashtirildi.

«Bumerang» maxsus-tezkor profilaktik tadbiri davomida shahar hududida xufyona ish olib borayotgan uyushgan jinoyat guruh faoliyatiga ham chek qo'yildi. Ushbu guruh tomonidan 6 ta holatda fuqarolarga

tovlamachilik, bosqinchilik yo'li bilan tajovuz qilingan bo'lib, 50 mln. so'mdan ziyod moddiy zarar yetkazganligi aniqlandi.

Bundan tashqari, 5 nafar sud va tergov organlariga kelishdan bo'yin tovlab yurgan shaxslar qo'lga olingan. Pinhona sharoitda sodir etilgan 10 ta jinoyat tezkor yo'llar bilan fosh etilib, fuqarolarga yetkazilgan zararni qoplash masalasini hal etish uchun tergov organlariga topshirildi.

**Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz**

Farg'ona viloyati.



UZUN TUMANI

(Davomi. Boshlanishi
1-betda.)

Tadbir doirasida davlat va jamoat tashkilotlari binolarini, ko'p qavatli uylar va bo'sh turgan inshootlarni ko'zdan kechirish, giyohvandlar, ichkilikbozlar, oilaviy janjalkashlar, muqaddam sudlanganlar, profilaktik hisobga olinganlar bilan suhbatlar o'tkazish, huquqbuzarlik va jinoyatlarni aniqlash bo'yicha belgilangan ishlar amalga oshirilmoqda. Shu ma'noda, bugungacha 3244 ta obyekt tekshiruvdan o'tkazildi, 450 dan oshiq huquqbuzarliklar aniqlandi. Tekshiruvlar davomida jamoat xavfsizligini ta'minlash bilan birga, yong'in xavfsizligi va sanitariya talablariga rioya qilinishi o'rganilib, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko'rilmogda.



Profilaktik tadbirlar davomida savdo, maishiy va xizmat ko'rsatish shoxobchalarida mavjud qoidalariga amal qilinishi ham o'rganilayotir. Shuningdek, aholi o'rtasida huquqbuzurlik va jinoyatlarning

oldini olishga qaratilgan targ'ibot tadbirlari uyushtirilyapti.

Ana shunday sa'y-harakatlar natijasi o'laroq, o'tgan 9 oy davomida tumandagi 51 ta mahalladan 34 tasida jinoyat sodir etilmadi,

10 ta mahallada jinoyatchilik kamaydi.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.

MAHALLA BESHЛИGI HAMKORLIGI

«KICHIK KENAGAS» «YASHIL» HUDUDGA AYLANDI

O'tgan yili Uchko'prik tumanidagi «Kichik Kenagas» mahallasida 3 ta jinoyat sodir etilib, «sariq» toifaga kiritilgan edi. Joriy yil boshida 10 yillik tajribaga ega mayor Shokirjon Karimov mazkur mahallaga profilaktika katta inspektori etib tayinlanganidan so'ng «beshlik» a'zolari bilan hamjihatlikda jinoyatchilikni jilovlashga qat'iy kirishdi.

– Erta tongda «beshlik» a'zolari hammamiz idorada to'planib, kunlik qiladigan ishlarimizni maslahatlashib olib, shunga qarab reja tuzamiz – deydi mayor Shokirjon Karimov. «Xonadonbay» o'rganishlarga birinchi galdagi yumush sifatida qarayapmiz. Beshta mutasaddi biror xonadonga o'rganishga kirsak, qaysi yo'nalishdagi muammo bo'lsa, darrov yechim topilyapti. Hokim yordamchisi bandlik, tadbirkorlik va kredit masalasida o'z tavsiyalarini bersa, yoshlar yetakchisi oiladagi yoshlar muammosini o'rganmoqda. Xotin-qizlar faoli esa ayollar bilan sirlashyapti. Men esa huquqiy maslahatlarimni beryapman.



Fuqarolar yig'ini raisi Mohiraxon Tursunovanning ta'kidlashicha, ayni kunda hududda 18 nafar tadbirkor faoliyat ko'rsatayotgan bo'lsa, ularning sonini ko'paytirishga jiddiy e'tibor qaratilyapti. Hokim yordamchisi shu sohaga qiziquvchi fuqarolar bilan gaplashib, amaliy jihatdan qo'llab-quvvatlash, imtiyozli kredit olib berishda ko'maklashyapti. 100 ga yaqin xonadonda issiqxonalar mavjud

bo'lib, limon, pomidor, bodring va ziravor yetishtiriladi.

Masalan, «Ayollar daftari» ro'y-xatiga olingan Muqaddam Jo'rayevaga imtiyozli kredit asosida 5 ta tikuv mashinasi olib berilgach, u kichik sex tashkil etib, qo'lida hunari bor ayollarni ish bilan ta'minladi. Aholining kam ta'minlangan qatlamini ish bilan ta'minlash maqsadida 80 nafarga yaqin xotin-qiz trikotaj va boshqa mahsulotlar ish-

lab chiqaruvchi tadbirkorlarga kasanachilik asosida birlashtirilgan.

Fuqarolarning ish bilan band bo'lgani, bekorchilarning yo'qligi, eng muhimi, barcha ishlar hamjihatlikda olib borilayotgani tufayli «Kichik Kenagas» obod va xavfsiz mahallaga aylanmoqda.

– Nafaqat Kichik Kenagas, balki boshqa mahallalarda ham jinoyatchilikni jilovlashda faxriylar tajribasidan unumli foydalanayapmiz, – deydi Uchko'prik tumani IIB boshlig'ining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, podpolkovnik Azizbek Umarov. – Har bir profilaktika inspektoriga o'zi xizmat olib borayotgan hududdan bir nafar faxriy maslahatchi etib birlashtirilyapti. Endilikda inspektorlar faxriylarning o'git va maslahatlariga tayangan holda ish olib borishadi. O'ylaymizki, tajribaga ega ustozlarning yordami yosh xodimlarning kasbiy mahoratini oshirishda qo'l keladi.

Abdusot SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.

SAVOB ISHLAR SALMOG'I

Yunusobod tumani 3-sektori hududida jami 16 ta mahalla joylashgan. Sektorning ishchi guruhi a'zolari mahallalarda obodonlashtirish hamda bolalar maydonchalari barpo etish ishlarini olib borishmoqda.

Shuningdek, keksa, nogiron, ehtiyojmand insonlarning holidan xabar olib, ko'pchilikning duosiga sazovor bo'lyapti.

3-sektor rahbariyati hamda tuman Tibbiy ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish bo'limi mutaxassislari hamkorligida o'tkazilgan tadbirlarda bir nechta nogironligi bo'lgan insonlarga yordam ko'rsatildi. Ularning xonadonlariga borilib, nogironlik aravachalari topshirildi.

Sektor hududidagi og'ir turmush sharoitida yashayotgan xotin-qizlar, ayniqsa «Temir daftar», «Ayollar daftari» va «Yoshlar daftari»ga kiritilgan oilalar hamda fuqarolarn-

ing muammolari mahallalarda «mahallabay» va «xonadonbay» tamoyili asosida o'rganib chiqilmoqda. «Yoshlar daftari»ga kiritilgan 450 nafarga yaqin yoshlardan 234 nafariga jami 477 mln. 287 ming so'mlik turli yordamlar ko'rsatilib, ular ro'yxatdan chiqarildi.



«Ayollar daftari»ga to'xtaladigan bo'lsak, o'rganishlar davomida aniqlangan 2700 nafardan ortiq xotin-qizlarga muammoli masalalari yuzasidan moddiy va boshqa turdagi ijtimoiy yordamlar ko'rsatildi. Shuningdek, «Ayollar jamg'arma»si hisobidan 2500 nafardan oshig'iga 3 mlrd. 139 mln. so'mlik yordam ko'rsatildi.

Tuman 3-sektor rahbariyati va ishchi guruhi tomonidan bu kabi savob ishlar davom ettirilmoqda. Muammosi hal etilayotgan va hojati ravo bo'layotgan fuqarolar bundan mamnun.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



«Temir daftar» bo'yicha mavjud 1400 tadan oshiq ehtiyojmand oilalarning mehnatga layoqatli, lekin ishsiz a'zolari ro'yxati shakllantirilib, saxovat.idm.uz ma'lumotlar bazasiga kiritildi. Shundan ularning 98,2 foizi ishga joylashtirildi.

Призвание

СВОЙ СРЕДИ ЖИТЕЛЕЙ

Когда Эргашжон Найимов узнал о вакансиях в Бухарском областном управлении внутренних дел, не раздумывая сдал документы. Благополучно пройдя отбор, выпускник факультета «Военное образование» Бухарского государственного университета, обрел свое призвание.



Его приняли на должность инспектора профилактики Шафирканского РОВД. До этого молодой специалист имел небольшой стаж педагогической работы в общеобразовательной школе № 4 Шафирканского района, но искал призвание, подходящее своему темпераменту.

Время показало, что интуиция парня не подвела. Уже три года старший лейтенант Э. Найимов успешно работает в махалле Жущура, освоившись не только с обязанностями, но и став своим среди жителей. На вверенном ему участке люди в основном заняты земледелием и животноводством. Раз так, то инспектор обязан разбираться в отраслях, представляющих интерес для населения. Иначе беседу не заведешь, не найдешь подход к людям.

Большое внимание он уделяет профилактике, делая акцент на лица, предрасположенные к правонарушениям, неблагополучным семьям. Совместно с председателем

и активом схода граждан обеспечивает исполнение совместного решения ряда министерств по формированию в махаллях безопасной среды. Благодаря целенаправленным мерам зона его ответственности включена в категорию «зеленых» махаллей.

— Люди довольны нашим инспектором, — говорит председатель махалли Хосият Фармонова. — Он никогда не откладывает на потом решение насущных проблем граждан, даже если они не входят в круг его непосредственных обязанностей. Пользуется уважением среди молодежи, решать вопросы которой считает своим долгом. Умело привлекает старейшин к нормализации отношений в проблемных семьях, использует метод общественного порицания, что в целом отражается на показателях в работе.

Мирзокул АХАДОВ,
соб. корр.

Бухарская область.



Yoshlar — kelajak bunyodkori

Ichki ishlar organlarining jinoyat qidiruv xizmatida kasbga mehr qo'ygan, burchiga sadoqatli xodimlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Ulardan biri Ohangaron shahar IIB Jinoyat qidiruv bo'linmasi tezkor vakili, mayor Farhod Kamoliddinovdir.

KASBIGA MEHR QO'YIB...

U IIV Akademiyasini muvaffaqiyatli tamomlab, ilk xizmat faoliyatini viloyat IIBB Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish boshqarmasi tog'li hudud tezkor bo'linmasi tezkor vakili vazifasida boshladi. Teran fikrli, izlanuvchan yigit qisqa fursat ichida intilish va qobiliyatini namoyan qilib, jinoyatlarni «issiq izida» fosh etishda faollik ko'rsatdi.

Muqaddam o'g'rilik jinoyati uchun sudlangan angrenlik Ergash Shukurov (ism-shariflar o'zgartirildi) xatosidan xulosa chiqarmadi. Aksincha, yana qing'ir yo'lni tanladi. Bu gal uning manzili Ohangaron shahri «Xonobod» mahalla fuqarolar yig'inida joylashgan Ibrohim Jaloliddinov xonadoni bo'ldi.

...Yangiyo'l shahridan kelayotgan Ergash taksi haydovchisiga tushlik qilish uchun Ohangarondagi oshxonaga to'xtab o'tishini so'raydi. Haydovchi rozi bo'ladi. Ikkalasi oshxo'rlik qilgach, Ergash unga shu yerda biroz dam olib turishini aytib, o'zi «hozir kelaman» degan mahalla oralab ketadi. Uning qarshisidan chiqqan birinchi inson I.Jaloliddinov hovli eshigini qulflaganicha, qo'lidagi sovg'alar bilan shoshib ketayotgandi.

Qulay vaziyatdan foydalangan Ergash uy egasi uzoqlashgach, shartta devor oshib hovliga kiradi va 35 million so'mlik tilla buyumlarni olganicha «juftakni rostlaydi». Hech gapdan xabari yo'q haydovchiga esa yana ortga qay-



tib, Yangiyo'l shahriga borib kelishlarini aytadi. Yangiyo'lga borishdan maqsad tilla taqincholarni pullash edi.

Xonadonida o'g'rilik sodir bo'lganidan xabar topgan I.Jaloliddinov darhol ichki ishlar organiga murojaat qiladi. Mazkur jinoyatni tezkor vakil Farhod Kamoliddinov qisqa fursatda videokuzatuv kameralarini sinchiklab o'rganish natijasida ochadi.

– Tirishqoqligi, izlanuvchanligi, tashabbuskorligi bilan safdoshlariga namuna bo'lib kelayotgan mayor Farhod Kamoliddinov turli tanlov va musobaqalarda ham faol qatnashib, yuqori natijalarni qo'lga kiritmoqda, – deydi Ohangaron shahar IIB JQB boshlig'i, podpolkovnik Durbek Meyliyev.

Lavhamiz qahramoni xizmatdan bo'sh paytida har xil adabiyotlarni mutolaa qiladi, qo'l jangi bilan shug'ullanishni esa hech qachon kanda qilmaydi.

Mixli SAFAROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent viloyati.

NAMUNALI XIZMAT RAG'BATGA LOYIQ

Qarshi shahar IIOFMB HPB voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan ishlash guruhi inspektor-psixologi, leytenant Dilnoza Quvvatovaning yoshlar tarbiyasi, ularning huquqiy savodxonligi, ma'naviy va ma'rifiy bilimini oshirish, huquq manfaatlarini himoya qilish yo'lidagi samarali harakatlari natijasida u yaqinda inspektor-psixologlarning ish ko'rsatkichi reytingida respublika miqyosida eng yuqori ball to'plashga muvaffaq bo'ldi.



Leytenant D.Quvvatovani xizmat hududiga Qarshi shahridagi «Aralovul», «Gungon», «Yangi turmush», «Oydin», «Qavali» mahalla fuqarolar yig'inlari kiradi. Ushbu mahallalarda yashayotgan voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish maqsadida muntazam ravishda ochiq muloqotlar, yoshlar bilan uchrashuvlar tashkil etib kelmoqda.

Qahramonimiz ta'lim muassasida tashkil etilgan fan, kitobxonlik va sport to'garaklari faoliyatini o'rganishni kanda qilmaydi. Chunki u mazkur to'garaklar faoliyati o'quvchi yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishda muhim o'rin tutishini yaxshi anglaydi.

– Afsuski, voyaga yetmaganlar bilan profilaktik ishlar olib borilayotganiga qaramay, nazoratsiz qolgani sababli yoki

ota-onaning farzand tarbiyasiga salbiy ta'siri natijasida joriy yilning 9 oyida yigirma nafardan ortiq o'smir profilaktik hisobga olindi, – deydi leytenant Dilnoza Quvvatova. – Ulardan 8 nafar o'smirning hujjatlari hokimlik huzuridagi voyaga yetmaganlar bilan ishlash komissiyasiga yuborildi. Farzand tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatgani uchun 6 nafar ota-onaga nisbatan ma'muriy jazo chorasi qo'llanildi.

Qarshi shahridagi «Aralovul» mahallasi-da joylashgan oilaviy mehribonlik uyida 8 nafar bola istiqomat qilmoqda. Inspektor-psixolog ularning holidan ham tez-tez xabar olib turadi. Bu yerdagi sharoitlarni ko'zdan kechirib, bolalarning o'qishlari bilan qiziqadi.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.

KECHA

VA

BUGUN



ONA TILIM – JONU DILIM

O'zbek tili dunyodagi qadimiy, go'zal va boy tillardan biri hisoblanadi. Dunyoda yetti mingga yaqin til bo'lsa, ularning faqat 200 ga yaqini davlat tili yoki rasmiy til maqomiga ega. Ona tilimiz esa turkiy tillar oilasiga mansub jonli til sifatida qipchoq, qarluq, o'g'iz lahjalarida namoyon bo'lgan. O'zbek adabiy tili esa ana shu lahjalardagi so'zlarning ma'lum bir me'yoriga keltirilgan shaklidir.

Millatimiz ruhini ifoda etuvchi ona tilimiz bizni yuksak ma'naviyatga, ma'rifatga, istiqbolga yetaklovchi bebaho ne'matdir. Ulug' ma'rifatchi bobomiz Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadigan o'yinai hayoti – bu uning milliy tili va adabiyotidir. Shu bois ham har birimiz ona tilimizni asrab-avaylashimiz, e'zozlashimiz lozim.



Ta'kidlash kerakki, ko'cha-ko'yda ajnabiy tildagi yozuvlarning qalashib ketishi, ish yurituvda hali ham rus tilidan qutula olmayotganimiz, boshqa-boshqa muammolarning yuzaga kelishiga birinchi navbatda o'zimiz aybdormiz. Ko'pchiligimizda milliy g'urur yetishmaydi. Katta-kichik ko'chalar, hatto butun shahardagi barcha peshlavhalar, e'lonlar boshqa tillarda yozilsa-da, parvoyimiz falak. Xorijiy tilni o'rgatishga ixtisoslashgan maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktabda tarbiyalanayotgan, o'qiyotgan farzandlarimiz chet tillarda biyron gapirganidan xursand bo'lib yuraveramiz.

So'nggi yillarda davlat tiliga bo'lgan bu kabi munosabatlar, befarqliklar yana asosiy mavzuga chiqib, ona tilimizning obro'sini ko'tarish yuzasidan davlat ahamiyatiga molik sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Xususan, «Davlat tili haqida»gi qonunning tarixiy o'rni va ahamiyatini inobatga olgan holda davlat tilini rivojlantirishga qaratilgan ishlarining uzviy davomi sifatida 2020-yil 10-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasining «O'zbek tili bayrami kunini belgilash to'g'risida»gi qonunni imzoladi. Unga muvofiq 21-oktabr sanasi yurtimizda «O'zbek tili bayrami kuni» deb belgilandi. 2020-yil 20-oktabrda esa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni qabul qilindi.

Mazkur farmon bilan o'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va

Nima uchun ko'cha harakati qoidasini buzgan kishiga militsiya hushtak chaladi-yu, butun bir tilni buzayotgan odamlarga hech kim hushtak chalmaydi.
Abdulla QAHHOR.

xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash, davlat tili sifatida o'zbek tilini o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o'zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilash, o'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish asosiy maqsad qilingan.

Mazkur farmon asosida qabul qilingan «2020–2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi»da o'zbek tilini uzoq muddatli rivojlantirishning asosiy ustuvor yo'nalishlari belgilangan.

Shuningdek, unda o'zbek tilini barcha sohalarida qo'llash doirasini kengaytirish, undan davlat tili sifatida

to'liq va to'g'ri foydalanishni ta'minlash maqsadida rahbar kadrlarning davlat tilida rasmiy ish yurita olish darajasini aniqlash mexanizmini ishlab chiqish, mas'ul lavozimlarga tayinlanadigan shaxslar uchun davlat tilini bilish bo'yicha daraja sertifikatlarini joriy etish, barcha vazirlik va idoralarda idoralararo hujjatlar aylanishi davlat tilida bo'lishini to'liq ta'minlash nazarda tutilgan.

Xulosa qilib aytganda, ona tilimiz bo'lgan o'zbek tilining nufuzini oshirish, jamiyatda davlat tiliga hurmat-e'tibor va mehr-muhabbat muhitini shakllantirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud, me'yoriy hujjatlar ham yetarli. Endigi vazifa Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz lozim. Bu olijanob harakatni barchamiz o'zimizdan, o'z oilamiz va jamoamizdan boshlashimiz, ona tilimizga, urf-odat va qadriyatlarimizga

2020–2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari sifatida 2025-yilga qadar yangi quriladigan muassasalar hisobiga o'zbek tili guruhlar qamrovini 72 foizga, 2030-yilgacha esa 80 foizga yetkazish, 2030-yilga qadar umumta'lim maktablarida o'zbek tili fanini o'qitish ko'lamini amaldagi haftada 84 soatdan 110 soatgacha oshirish belgilab qo'yildi.

hurmat, Vatanga mehrimizni amaliy faoliyatda namoyon etishimiz kerak.

Foziljon MAMASHARIPOV,
o'z muxbirimiz.

O'zbek tili Amerika Qo'shma Shtatlari, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Shvetsiya, Rossiya, Ukraina, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, Hindiston, Turkiya, Afg'oniston, Ozarbayjon, Tojikiston, Qozog'iston, Turkmaniston kabi davlatlarning 60 ga yaqin universitetlari va 100 dan ziyod maktablarda o'rganilmoqda. Hozirgi vaqtda o'zbek tilida so'zlashuvchilar soni jahon miqyosida 50 million kishiga yaqinlashib qoldi. Bu ona tilimizning dunyodagi yirik tillardan biriga aylanib borayotganidan dalolat beradi.



YO'L BOSHIDA

BOLA ADASHMASIN...

Jizzax viloyati ichki ishlar organlari tizimida faoliyat yuritayotgan inspektor-psixologlar tomonidan doimiy ravishda o'tkazilayotgan voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishga qaratilgan targ'ibot tadbirlari o'z samarasini bermoqda. Shuningdek, nobop xulq-atvorli o'quvchilarning muammolarini aniqlash va bartaraf etish, xususan, ruhiy yordam ko'rsatish maqsadida suhbatlar tashkil qilinayotir.

Viloyatning turli hududlarida qarovsiz yurgan 375 nafar bola viloyat IIB JXX Huquqbuzarliklar profilaktikasi boshqarmasiga qarashli Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirilgan. Bolalarni tunda faoliyat ko'rsatadigan ko'ngilochar muassasalarda bo'lishiga yo'l qo'ygan 32 nafar mas'ul ma'muriy javobgarlikka tortilgan.

– Umuman olganda, viloyatda farzand ta'lim-tarbiyasiga e'tiborsiz qaraganligi, ularning xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatganligi yoki ota-onalik burchini bajarmaganligi uchun



2037 nafar ota-ona yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga nisbatan javobgarlik belgilandi, – deydi viloyat IIB JXX Huquqbuzarliklar profilaktikasi boshqarmasining voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan ishlash guruhi katta inspektori, kapitan O'rol Abduazimov. – Huquqbuzarlik sodir etgan o'quvchilar doimiy nazoratga olinyapti. Voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha komissiyalar ko'magida ota-onasi xorijdaligi tufayli nazoratsiz qolgan 341 nafar bolaga vasiy va homiyalar tayinlandi.


Yana bir ma'lumot: viloyatdagi o'rta umumta'lim maktablarining hammasida tegishli tartibda jihozlangan psixolog xonasi mavjud. Bu ichki ishlar organlari inspektor-psixologi va o'quvchining yuzma-yuz muloqotini tashkil etishda qo'l kelayotir.

Alijon ABDUSATTOROV,
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.

HARAKAT HAVFSIZLIGI

UYQU HAYDOVCHINING DO'STI VA... DUSHMANI



Ma'lumotlarga qaraganda, har yili butun dunyoda 100 mingdan ortiq yo'l-transport hodisasi haydovchilarning uyqusirashi tufayli sodir bo'lar ekan. Bunday holatlar asosan, 25 yoshdan katta haydovchilar bilan ro'y bermoqda. Mutaxassislar tomonidan o'tkazilgan so'rovnomada ishtirok etgan bir guruh haydovchilarning taxminan yarmi mashina boshqarayotib esnash odati borligini tan olgan. Ularning 20 foizi o'tgan yili transportni boshqarayotib bir marta bo'lsa-da, uyqusiraganini, 40 foiz haydovchi esa bu holat o'z faoliyati davomida hech bo'lmasa bir marta sodir bo'lganini tan olgan. O'z navbatida, sutkasiga 7 soatdan kam uxlash yo'l belgilarini payqamaslik, tezlikni me'yorda saqlay olmaslik kabi holatlarni keltirib chiqarib, ko'pchilikning avtohalokatdan aziyat chekishiga olib kelmoqda.

Navoiy viloyati IIB JXX YHXB xodimlari tomonidan shu kabi salbiy holatlarning oldini olish maqsadida «Samarqand» muntazam YPX maskanida uzoq masofalarga harakatlanuvchi haydovchilar bilan profilaktik suhbatlar o'tkazildi. Xususan, boshqa viloyat davlat raqam belgisi bilan kirib kelayotgan avto-uloov haydovchilari birma-bir to'xtatilib, hushyorlikka da'vat etildi.

Viloyatdan o'tuvchi yo'llar cho'l hududida joylashganligi bois, bir xil manzara zerikish va uyqu holatlarini yuzaga keltirishi mumkin. Qolaversa, bu joylarda yo'lga turli hayvonlarning chiqib qolish ehtimoli katta. Haydovchilarga mana shu jihatlar alohida tushuntirilib, tezlikni me'yordan oshirmaslik, qarama-qarshi yo'nalishda harakatlanmaslik, quvib o'tish qoidalariga amal qilish zarurligi uqtirildi.

Sabina XO'JAYEVA,
Navoiy viloyati IIB JXX YHXB
Axborot xizmati mutaxassisi.



■ Хорезмская область



В Ургенче состоялся семинар-тренинг на тему «Дальнейшее повышение роли женщин в обществе – приоритетная задача государственной политики».

В нем приняли участие представители правоохранительных органов, юристы, психологи, преподаватели и учащиеся Ургенчского юридического техникума.

– Достижение гендерного ра-

венства не только обеспечивает права женщин, но и повышает позиции Узбекистана в международных рейтингах, – отметила старший инспектор по вопросам женщин ОПП СОБ УВД города

Хорезма капитан Насиба Абдуллаева. – На состоявшемся семинаре говорилось об условиях, создаваемых для соотечественниц, предоставляемых им льготах. Высказаны мнения и предложения.

На прошедшем в деловой и заинтересованной атмосфере мероприятии даны поручения по широкой пропаганде среди населения обсуждаемых целей и задач.

Соб. корр.



■ г. Ташкент

ДОСТОЙНЫЙ ВКЛАД В БЛАГОРОДНОЕ ДЕЛО

Наделенные полномочиями инспекторы профилактики, ежедневно общаясь с махаллинцами, находятся в курсе всех событий, изучают проблемы и потребности населения, оказывают правовую помощь и социальную поддержку.

Как отмечал Президент страны, инспектор профилактики не проверяющий или надзиратель, а помощник для жителей махалли в решении житейских вопросов, человек, на которого можно положиться в трудную минуту.

Лейтенант Давронбек Холматов один из таких инспекторов, кому доверены спокойствие и порядок в махалле. За минувший период текущего года совместно с «пятеркой» махалли он участвовал в устранении ряда проблем, беспокоивших жителей, по обращениям граждан оказывал конкретную помощь социально-экономического характера.

– Я являюсь инспектором профилактики махалли Бектемир Бектемировского района. На вверенной мне территории проживает более 4 000 человек. В 768 домохозяйствах основную часть населения составляют самозанятые граждане. Их мы с полной уверенностью можем отнести к категории лиц,



не склонных к совершению преступлений. Но в нашей махалле проживают и лица, ранее судимые, состоящие на учете пробации и на профилактическом учете. Мы с наставником, инспектором


профилактики старшим лейтенантом Жахонгиром Кодировым, постоянно контролируем данную категорию граждан и прилагаем все усилия, чтобы ими повторно не совершались правонарушения

или преступления. В приоритете обеспечение занятости граждан, улучшение их жилищных условий, – делится лейтенант Давронбек Холматов. – Очень важно быть всегда ближе к народу, то есть необходимо постучаться в каждую дверь на вверенной территории. Поговорить с жителями, выслушать их, изучить волнующие вопросы будь это мужчина, женщина, пожилой человек или даже ребенок. Необходимо изучить образ жизни каждого, понять как он живет. Преступления, порой совершаются из-за разногласий и недопониманий в семье. И если нам удастся увидеть эти проблемы и устранить их, то мы тем самым внесем свой вклад в обеспечение мира и спокойствия в стране.

Все проводимые в стране преобразования, реализуемые социально-экономические проекты направлены на обеспечение благополучной жизни народа.

В это благородное дело сегодня вносят инспекторы профилактики.

Соб. корр.



На снимках: Старший инспектор дежурной части УВД ОВД Шайхантахурского района ГУВД г. Ташкента капитан Бекзод Толипов (слева) и специалист группы мониторинга УВД ОВД района рядовой Юлдаш Мирзабобоев (справа) во время службы.

Третий сектор

ПОМОЩЬ АДРЕСНАЯ, ПОМОЩЬ ДЕЙСТВЕННАЯ

На территории третьего сектора в Пахтаабадском районе Андижанской области в 16 махаллях проводится целенаправленная работа по искоренению бедности, повышению качества жизни, трудоустройству населения, обеспечению бесперебойной подачи электроэнергии, природного газа, питьевой воды.

За третий квартал текущего года на территории третьего сектора, где проживают более 45 тысяч граждан, отремонтировано 10 километров линий электропередач, заменено 500 метров проводов, установлено 13 новых распределительных трансформаторов. Прделана работа по обеспечению чистой питьевой водой жителей махаллей Бодрогобод, Жа-



хон таракиети, Пайноб, Туккизбог, Сой. Пробурено три артезианских скважины, проложено четыре километра водопровода.

Жителям, в домах которых нет голубого топлива, доставлено 445 тонн сжиженного бытового газа. В махаллях Бодрогобод, Богигулистон, Гулзор ведется ремонт газопроводов. В махаллях Олмазор, Шоврук, Жийдали и Ча-

манзор обновлены четыре километра дорожного полотна. В ходе граждан «Гузар» проведен капитальный ремонт здания общеобразовательной школы № 10: заменены оконные рамы, обновлена кровля, отремонтирован фасад.

Для приобретения швейных машинок и бытовой техники 35 малообеспеченным семьям выделены субсидии.

224 гражданам выданы кредиты на общую сумму 3,8 миллиарда сумов.

Не остаются без внимания инвалиды, члены малообеспеченных семей. Нуждающимся выдаются инвалидные коляски, продуктовые наборы, строительные материалы, за счет спонсорской помощи проводится ремонт жилья.

**Элмурод
МАМАДАЛИЕВ,
капитан.**

«NURLI MASKAN» MAKTABLARIDA

XAYRLI ISHLARDA BOSH-QOSH

Bugungi kunda Nukus shahridagi 10-son ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat maktab-internatida 287 nafar o'quvchi ta'lim olmoqda. Ulardan 13 nafari esa uy shartida o'qitilmoqda.

Maktab-internat o'quvchilaridan iborat «Umid uchqunlari» ansambli tashkil etilib, vazirlikning «Orol yulduzlari» ansambli bilan birgalikda joylarda xayriya konsertlari o'tkazildi. Konsertdan tushgan pul mablag'lari maktab-internatining moddiy-texnik bazasini yaxshilash, o'quvchilarni har

jihattan qo'llab-quvvatlash uchun yo'naltirib kelinmoqda.

2022–2023 o'quv yilida davlat mablag'i hisobidan ko'zi ojiz bolalar uchun futbol maydonchasi qurilgan bo'lsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan ajratilgan mablag' evaziga bitta sinf



to'liq kompyuter texnikalari bilan jihozlandi.

Shuningdek, maktab-internatda maxsus brayl shriftidagi darsliklar va badiiy kitoblarni, o'quv qo'llanmalarini kitob holiga keltirishda «Displey» qurilmasidan foydalanish amaliyoti yo'lga qo'yilmoqda.

– Ko'zi ojiz ko'ruvchi shaxslar uchun ushbu qurilmaning afzalligi nihoyatda katta. Bu qurilma ko'zi ojiz o'quvchilarning kompyuterdan foydalanishini osonlashtirib,

word dasturida erkin ishlash, PDF dasturidagi kitoblar, darsliklarni o'qish, internet tarmog'idan foydalanish imkonini beradi. Ayni paytda 12 nafar o'qituvchiga ushbu qurilmadan foydalanish o'rgatilmoqda. Noyabr-dekabr oylaridan ular o'quvchilarga o'rgatishni boshlaydi, – deydi maktab-internat direktori Aydarbek Aymuratov.

**Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.**

Qoraqalpog'iston Respublikasi.

SALOMATLIK – TUMAN BOYLIK

DAVR BILAN HAMQADAM


Jizzax viloyati IIB Tibbiyot bo'limida ilg'or texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor qaratilayotir. Jumladan, bo'lim shifokorlari ixtiyorida gemotologik analizator 20 xildan ortiq yo'nalishda qon tahlilini o'tkazish imkonini beradi. «SL 900 I» immunoxemilyuminissent analizator esa 200 dan ortiq kasalliklarni aniqlaydi. Xuddi shunday, zamonaviy LOR kombayni tashxis qo'yish, davolash va kichik jarrohlik amaliyotlarini o'tkazishda qo'l kelayotir.

Soha vakillari raqamli rentgen, ultratovushli tashxis uskunasi, «AJAKS AJ-18» stomatologiya jamlanmasi kabi qurilmalar imkoniyatlariga tayana olishadi. Bo'limni texnologik jihatdan kuchaytirishga qaratilgan jarayonlar to'xtab qolgani yo'q. Binobarin, bu yil yurakni skrining qiluvchi «Kardiovizor-12S», «Biot-YG-I» fluorrestsent immunoanalizatori hamda bir qancha ginekologik va fizioterapiya uskunalari olingan.

Ta'kidlash joiz, mazkur qurilmalarning bir qismi pullik xizmat ko'rsatishdan tushgan mablag'lar hisobidan xarid qilindi. Xususan, joriy yilning

o'tgan davrida bo'lim tomonidan 500 million so'mdan ziyod mablag' ishlab topilgan.

Shaxsiy tarkib tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, natijada 149 nafar xodimning ilk bor kasallikka chalingani aniqlandi hamda ularga tegishli davolash choralari ko'rilmoqda. Bundan tashqari bo'lim shifokorlari kasalliklarning oldini



olish va xodimlarning tibbiy madaniyatini oshirish nuqtai nazaridan viloyat IIB hamda hududiy ichki ishlar organlari va sohaviy xizmatlar shaxsiy tarkibi ishtirokida 400 dan ortiq targ'ibot tadbirlari uyushtirganlar.

Shuningdek, birlashtirilgan kontingentga 40 o'rinni nevrologiya va terapiya bo'limlariga ega gospital mavjud.

Sohada qog'ozbozlikning oldini olish maqsadida «Y-MED» tizimi joriy qilingan. Mazkur tizim viloyat IIB hamda tibbiyot bo'limi o'rtasida elektron ma'lumot almashish imkonini beradi.

Alijon ABDUSATTOROV,
o'z muxbirimiz.

YOSHLAR – KELAJAK BUNYODKORI

UZLUKSIZ ISHLASHINI TA'MINLASH – VAZIFASI

Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanida ishtirok qiladigan Eshqobil aka va Sharofat opaga ko'pchilik havas qiladi. Oila boshlig'i shifokorlik qilib, el salomatligini ta'minlashga hissa qo'shib kelayotgan bo'lsa, o'qituvchilik kasbini tanlagan uy bekasi esa ko'p yillar bolalarga ta'lim-tarbiya berib keldi. Hamjihatlikda to'rt o'g'il, ikki qizni voyaga yetkazishdi. Bugun doim totuvlik, bir-birini tushunib yashash hukmron bo'lgan oilada katta bo'lgan farzandlarning hammasi o'z yo'lini topib, xalq xizmatida umrguzaronlik qilishmoqda.

Bugun Qurolli Kuchlar tizimida xizmat qilib kelayotgan Davronbek ham shu oilada kamolga yetdi. Armiyadan qaytib, Angrendagi harbiy qismda shartnoma asosida xizmat qilgach, u harbiylashtirilgan oliy o'quv yurtiga o'qishga kirib, ofitser bo'lishni maqsad qilgandi. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Maxsus fakultetini tugatib, IIV Xalqaro aeroportlarda xavfsizlikni ta'minlash qo'shinlariga

qarashli 7251-sonli harbiy qismda vzvod komandirining o'rinbosari, vzvod komandiri lavozimlarida samarali xizmat qildi. 2022-yildan u xizmatni qo'shinga qarashli 7253-sonli harbiy qismda davom ettirdi. Ayni paytda kapitan Davronbek Yo'ldoshev harbiy qism texnik qo'riqlash vositalariga xizmat ko'rsatish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmati boshlig'i lavozimida xizmat qilib kelmoqda.

Kapitan Davronbek Yo'ldoshevga harbiy qismdagi aloqa



vositallari, kuzatuv kameralari va texnik qo'riqlash vositalarining bir me'yorda, uzluksiz ishlashini ta'minlash vazifasi yuklatilgan. Kiberxavfsizlik, axborot xavfsizligi yo'nalishidagi kitoblarni varaqlaydi, internet saytlarini kuzata-

di. Hayotga kirib kelayotgan yangi texnologiyalar ishlash funksiyasini ko'zdan kechiradi. Negaki, zamon shiddat bilan oldinga intilmoqda, yangi-yangi texnikalar, vositalar hayotimizga kirib kelyapti.

– Menga havas qilib, ukam

Sardorbek ham harbiy sohani tanladi, – deydi qahramonimiz. – Ayni paytda ukam kapitan Sardordek Yo'ldoshev ham qo'shinga qarashli Urganch shahridagi 7260-sonli harbiy qismda xizmat qilib kelmoqda. Men Farg'onada, ukam Xorazmda, ota-onam, yaqinlarim Qashqadaryoda bo'lgani uchun bir-birimizni sog'inamiz. Shuning uchun bayram yoki to'y-ma'rakada barcha oila a'zolari jamuljam bo'lib qolsak, uyda katta bayram bo'lib ketadi.

Bugungi kunda Davronbek turmush o'rtog'i Charosxon bilan birga Abdurahmon ismli farzandini voyaga yetkazib kelmoqda. Xullas kapitan Davronbek Yo'ldoshev oilada ham, harbiy qismda ham o'z o'rniga ega baxtiyor insonlardan biridir.

Farhod ERKINOV,
mayor.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI, 31-MODDA.

Har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish, o'z sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega. Har kim yozishmalari, telefon orqali so'zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlarini sir saqlanishi huquqiga ega. Ushbu huquqning cheklanishiga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo'l qo'yiladi.

Har kim o'z shaxsiga doir ma'lumotlarning himoya qilinishi huquqiga, shuningdek noto'g'ri ma'lumotlarning tuzatilishini, o'zi to'g'risida qonunga xilof yo'l bilan to'plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo'lmay qolgan ma'lumotlarning yo'q qilinishini talab qilish huquqiga ega.

Har kim uy-joy daxlsizligi huquqiga ega.

Hech kim uy-joyda unda yashovchi shaxslarning xohishiga qarshi kirishi mumkin emas. Uy-joyga kirishga, shuningdek unda olib qo'yishni va ko'zdan kechirishni o'tkazishga faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda yo'l qo'yiladi. Uy-joyda tintuv o'tkazishga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo'l qo'yiladi.





МОЙ РОДНОЙ ЯЗЫК – ЯЗЫК МОЕЙ ДУШИ

«Для каждого человека родной язык, определяющий его самосознание и духовный мир, является такой же священной ценностью, так же дорог и почитаем, как Родина, где он вырос, родители, подарившие жизнь и воспитавшие его».

Шавкат МИРЗИЁЕВ.

Язык – неотъемлемый признак государственности, связующее звено передачи знаний через поколения, олицетворение силы и мощи любой страны. В настоящее время в мире насчитывается более 7 тысяч языков и диалектов, среди них около 400 имеют свою письменность, 178 – статус государственного языка, в их числе и узбекский язык.

В родном языке отражаются история и культура его создателя – народа. В то же время он играет огромную роль в общественном развитии, является неотъемлемым атрибутом нации, одним из признаков суверенности государства, хранит в себе огромный пласт культурных и исторических ценностей. Узбекский язык – та нить, которая связывает воедино целые поколения, мудрость предков, достижения культур. Национальный язык – это история, без которой ни один народ не мыслим. Он свидетельствует о его самобытности, определяет духовный потенциал нации. Именно языку предназначено быть отражением истории народа и развития государства. Об этом писал великий поэт и мыслитель Алишер Навои, создавший образцы высокой лирики, продемонстрировавший широкие возможности узбекского языка, его богатство, гибкость, изящество.

На формирование узбекского языка оказали свое влияние жившие на территории региона до нашей эры и в ранние века нашей эры бактрийцы, согдийцы, хорезмийцы, другие этносы и нации. В становлении и всестороннем развитии узбекского литературного языка важную роль сыграл древнетюркский язык. Узбекский язык, входящий в большую семью тюркских языков, – один из крупнейших в мире. На нем говорят более 50 миллионов человек, его преподают в 60 странах. История узбекского языка неразрывно связана с многовековой историей, стремлениями и чаяниями, горестями и победами нашего народа. Именно родной язык был

для наших предков главным фактором национальной самоидентификации. На узбекском языке они создавали величайшие образцы культурного наследия, художественные шедевры, делали научные открытия.

По инициативе депутатов Олий Мажлиса, Министерства культуры, Союза писателей Узбекистана, Республиканского центра духовности и просветительства, Союза молодежи Узбекистана, Комитета женщин и Центра «Стратегия развития» принят закон об объявлении 21 октября Днем праздника узбекского языка, который отмечается в стране с 2020 года.



сов, объединяет более 130 наций и народностей, проживающих на территории республики. Особое внимание, уделяемое развитию языка, также способствует укреплению его роли и авторитета в мире.

В последние годы в стране проведена большая работа по развитию и совершенствованию государственного языка, усилению его роли и влияния в жизни общества, превращения его в национальную ценность. Большое значение придается совершенствованию образовательных стандартов по узбекскому языку,

ний великого узбекского поэта Алишера Навои.

Особым историческим событием стало выступление Президента Шавката Мирзиёева на 75-й сессии Генеральной Ассамблеи Организации Объединенных Наций. Впервые в истории на площадке ООН оно прозвучало на узбекском языке. Глава нашего государства на родном языке точно и глубоко осветил политический подход Узбекистана к мировым и региональным проблемам.



Узбекский алфавит, основанный на латинской графике, открыл широкие возможности для интеграции Узбекистана в мировое сообщество, глубокого изучения иностранных языков. В последние годы за рубежом наблюдается интерес к изучению узбекского языка. Открываются специализированные центры и кафедры в ведущих университетах США, Японии, Китая, других стран.

Сегодня наш родной узбекский язык является символом государственности независимого Узбекистана, служит интеграции всех происходящих в стране процес-

обновлению на их основе учебных планов и программ, пособий. В учебных заведениях увеличили количество часов по изучению родного языка. Создано большое количество учебных и методических пособий, диссертаций, посвященных изучению особенностей узбекского языка, его истории и развития. Кроме того, изданы десятки словарей, опубликованы произведения классической литературы на узбекском языке, включая «Национальную энциклопедию Узбекистана», пятитомный «Толковый словарь узбекского языка», 20-томный сборник избранных произведе-

В нашей стране созданы все условия для защиты прав и законных интересов человека, связанных с языком. В соответствии с Конституцией и другими нормативными актами закреплены равные права всех граждан независимо от их социального положения, пола, возраста и национальности. Запрещается нарушать права граждан в выборе языка воспитания и обучения, создавать препятствия в использовании языка, пренебрежительно относиться к государственному языку и другим языкам проживающих в Узбекистане наций и народностей.

Это право закреплено в ст. 42 Кодекса об административных правонарушениях. Аналогичные положения, направленные на гарантирование свободы выбора граждан, иностранцев и лиц без гражданства, проживающих в нашем государстве, закреплены во многих других нормативных актах.

Наше отношение к государственному языку, как и к языкам других народов, проживающих в стране, необходимо рассматривать как отношение к нашей независимости, почитание и уважение к культуре и истории, как преданность и уважение к Родине. Это должно стать одним из главных жизненных правил.

Сирождидин ДЖУРАБАЕВ.



MUQADDAS QADAMJOLAR

«QIZBIBI» MAJMUASI

Buxoro viloyatining Jondor tumanida «Qizbibi» majmuasi joylashgan. Maydoni 0,5 gektar. Majmua masjid va xonaqohdan iborat. Bino baland gumbazli bo'lib, qishki va yozgi xonalardan tashkil topgan. Uning silliqlangan g'ishtlar bilan bezatilgan mahobatli peshtoqli old tomoni sharqqa – Qizbibi mozoriga qaragan. Kichik peshtoqli Shimoliy fasadi uch tomondan hujralar bilan o'ralgan masjid hovlisi bilan tutash.

– Qizbibi mozori taxminan XVIII asr oxirlarida ikki xilxonali etib qurilgan maqbaraga ega. Uning yagona bezakli binosi hisoblangan ayvon keyinroq masjid va xonaqohning bosh peshtoqiga qaratilib qurilgan. Ayvon oynali yog'och o'ymakorlik uslubi bilan bezatilgan. Bezaklar saqlanmagan. Ammo ayvon tagida qora-kulrang marmar qabrtosh saqlab qolingani. Uning shakli noan'anaviy, ya'ni o'rtasi teshik to'rtburchak toshtaxta ko'rinishida. Qabrtoshda quyidagi mazmundagi yozuv mavjud: «Bu xushbo'y, nurafshon maqbara Og'oyi Buzruknidir. [Ushbu so'zlarni] kamtarin qul Niyoz Muhammad kotib yozdi. Hijriy 1223 [milodiy 1808] yil». Maqbaraning shimoliy devori oldida panjali tug' qad ko'tarib turibdi. Panjada «Hijriy 1227-yil» degan yozuv bor, – deydi Jondor tumani «Qizbibi» jome masjid imom-xatibi Sobirjon Rahimov. – Shuningdek, bu yerda mehmonxona, ayollar masjidi va hovlichalar joylashgan edi. Ularning maqbaradan tashqari barchasi o'tgan asrning 30-yillarida buzib tashlangan. Maqbara va xonaqohning ayollarga mo'ljallangan qismiga erkaklar hech qachon kirmagan. Bu odat hozirgacha saqlanmoqda. Majmuani shimoliy sharq tomondan oshxona yoki halimxona va xo'jalik hovlisi o'rab turadi. Bu yerda ko'plab o'choq va tandirlar joylashgan. Qolaversa, uy-ro'zg'or anjomlari, jumladan, halisa (halim) tayyorlash uchun katta qozonlar saqlangan. Nomi bizga noma'lum saxovatpesha shaxs tomonidan 1913–1914-yillarda majmuaning ayollar qismi va oshxona quriladi. Buning uchun majmua yaqinida xumdon qurilib, unda «saldoti», «yevropacha» deb atalgan mashhur to'g'ri burchakli g'ishtlar pishirilgan. XX asrning 80-yillari boshlariga qadar xonaqohning yarmidan ko'pi ko'chuvchi qumlar ostida qolib ketgan edi. Shunga qaramay, bu joy atrofi qishloqlar aholisi o'rtasida ziyoratgoh sifatida mashhur bo'lib kelgan.

Qizbibi kim bo'lgan? Nima uchun cho'lining o'rtasida aynan ayollar

xonaqosi qurilgan? Bizning bu kabi savollarimizga masjid qorovuli Normurod Baqoev quyidagilarni gapirib berdi:

– Qizbibining asli ismlari Bibi Mastura bo'lgan. U kishining ota-onasi Arabistonning Yaman shahridan bo'lib, 21 yil yurtlarni kezib, Buxoroga yetib kelishadi. Shu yerda intiqib kutilgan farzandi tug'iladi. Bibi Mastura yoshligidan bilimga chanqoq bo'ladi. Shuningdek, qizaloqning yana bir xislati voqealarni oldindan ko'rishi edi. Buni



sezgan ota-onasi uni ko'chaga chiqar-maslikka, yomon ko'zdan asrashga harakat qilishadi. Ota-onasining vafotidan so'ng Bibi Mastura hozirgi jome masjidi o'rniga qamishdan chaylalar yasab, atrofiga qizlarni to'plab o'qita boshlaydi. Shikorga chiqqan Amir Farrux chaylani ko'rib, qiziqib bu yerga keladi va saboq olayotgan qizlarni ko'rib, unda madrasa bunyod etish fikri tug'iladi. Shu tariqa pishiq g'ishtdan hozir «Qizbibi» nomini olgan masjid o'rnida madrasa bunyod etiladi. Qizlarning yashab, saboq olishlari uchun hovlining aylanasiga hujralar

quriladi. Qizbibi keyinchalik homiysi Amir Farruxga turmushga chiqadi va ikki nafar farzand ko'radi.

Qizbibi hijriy 929-yil ramazon oyining 16-sanasida, milodiy 1523-yil 30-iyulda vafot etadi. Uning qabri masjid ichkarisida. Yo'lakda esa ikki shogirdi – Azalbaxt va Gulshakarning qabri bor. Xonaqohning qiblagi qarab turgan katta toshi mavjud bo'lib, uni mahalliy aholi Murodtosh deb ataydi. Toshga Oyatal kursi va kalima bitilgan. Sobiq Ittifoq davrida majmuani

otxonaga aylantirishgan, keyinchalik esa undan tuman o'rmon xo'jaligining omborxonasi sifatida foydalanishgan. Istiqlol shabadasi esa boshlagach, bu muqaddas qadamjo obodonlashtirila boshlangan. Bugungi kunda «Qizbibi» majmuasi farzand, baxt talabida, turli dardlardan shifo istab, ishi yurishishini so'rab kelgan ziyoratchilar bilan gavjum. Ayni paytda ziyoratgohda Buxoro madaniy meros tashkiloti tomonidan ta'mirlash ishlari olib borilmoqda.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

BILASIZMI?

IBRAT LUG'ATI

Tilshunoslik fani sohasida faoliyat yuritish, lug'at tuzish ishlari juda murakkab. U kishidan katta mehnat, bilim va tajribani talab etadi. Ishoqxon to'ra Ibratning «Lug'ati sitta al-sina» («Olti tilli lug'at») hamda «Jome' ul xutut» («Yozuvlar majmuasi») asarlari ana shunday mashaqqatlarga qilingan sabru toqat mevasidir. «Lug'ati sitta al-sina» – o'zbekcha, arabcha, forscha, turkcha, hindcha, ruscha so'zlarni o'z ichiga olgan kitobdir. Bu asar sharq va g'arb tillarini mukammal bilgan olimdan munosib tuhfa deyishimiz mumkin. Lug'at arab yozuvida yaratilgani o'z davri uchun muhim ahamiyat kasb etganini tasavvur etish qiyin emas. Ishoqxon to'ra Ibratning lug'ati jonli tilda qo'llaniladigan faol so'zlardan tarkib topganligi sababli farzandlarini yangi maktabga bergan kishilar uchun g'oyat aziz



qo'llanma bo'lgan. Shu sabab u nashr etilishidan avval qo'lyozma tarzida ko'chirilib el orasiga tarqalgan. Ana shundan so'ng tilshunos uni nashr etishga harakat qila boshlagan. Garchi bu kitob XIX asr boshlarida musannifning chet el sayohatlaridan keyin bitilgan bo'lsa-da, bir necha yillik sarsongarchiliklardan so'ng 1901-yilda nashr etildi.

Ibrat domla 1908-yil Orenburgdan litografik jihozlar to'plamini olib keladi va «Matbaai Ishoqiya» bosmaxonasiga asos soldi. Farg'ona vodiysi matbaachiligining ilk korxonasi bo'lmish mazkur bosmaxonada tashabbuskorning asarlari, darsliklaridan tashqari gazetalar chop etish yo'lga qo'yildi. Ibrat domla davrning eng ilg'or publitsisti ham bo'lgan. Uning maqolalari, she'rlarining asosiy qismi «Turkiston viloyati gazetasi» sahifalarida e'lon qilingan. Shuningdek, jurnalist sifatida u «Sadoi Turkiston», «Sadoi Farg'ona» nashrlarida o'z ijodi bilan muntazam qatnashib turdi.

G'ayrat MAJIDNING
«Yo'ldaman, nurli yo'lda»
nomli kitobidan olindi.



★ Ayol va jamiyat

HAR JABHADA FAOL

Mamlakatimizda xotin-qizlarning jamiyatdagi faolligini oshirish, ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ular tomonidan jinoyat va huquqbuzarliklar sodir etilishining barvaqt oldini olishga alohida e'tibor qaratilyapti. Bu borada Xorazm viloyatining chekka hududlaridan biri – Tuproqqal'a tumanida ham samarali ishlar amalga oshirilmoqda.



Tumanda mahalliy hokimlik, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda tegishli tashkilot va muassasalar hamkorligida amalga oshirilishi lozim bo'lgan kompleks cho-

ra-tadbirlar dasturi ishlab chiqilgan. Dasturga muvofiq, muqaddam sudlangan, huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan, yashash manzilidan uzoq muddatga chet elga ket-

gan, ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanmayotgan xotin-qizlar bilan «xonadonbay», «fuqarobay» tamoyillari asosida tizimli ishlar olib borilyapti. Mahallalarda tash-

kil etilgan ishchi guruhlar har bir oiladagi xotin-qizlarning turmush tarzi, yashash sharoiti, muammolari manzilli o'rganilmoqda va ularga amaliy yordam ko'rsatilyapti.

– Ishsiz ayollar ro'yxati shakllantirilib, ularni ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish, kasb-hunarga yo'naltirish, imtiyozli bank krediti asosida tadbirkorlik bilan shug'ullanishlari uchun amaliy yordam ko'rsatish maqsadida turli tadbirlar, mehnat yarmarkalari o'tkazilyapti, – deydi tuman IIB HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori, podpolkovnik Shahnoza Botirova. – Bu sa'y-harakatlarimiz natijasida profilaktik hisobda turgan jami 111 nafar xotin-qizning barchasi mavsumiy yoki doimiy ish o'rniga ega bo'ldi. 48 nafar ayolga moddiy va ijtimoiy, 81 nafariga tibbiy, 72 nafariga esa shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarini qayta tiklashda amaliy yordam ko'rsatildi.

O'rganishlar jarayonida tuman hududida istiqomat qilayotgan yakka-yolg'iz, boquvchisini yo'qotgan, nogironligi bo'lgan xotin-qizlar, kam ta'minlangan oilalarning turmush sharoitini yaxshilashga ham jiddiy e'tibor qaratildi. Ularga tuman hokimligi, mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi hamda mahalla fuqarolar yig'inlari tomonidan moddiy yordam ko'rsatildi.

Xudoybergan JABBOROV,
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.

РАЗДЕЛИТЬ СВОЕ СЧАСТЬЕ

Первый осенний дождь начался внезапно. Небо заволкло серыми тучами – сразу стало холодно и неудобно. Замира медленно шла по улице и на душе у нее скребли кошки. Она опять сбежала из дома после очередного скандала.

Родители девочки погибли в автокатастрофе, когда она была еще совсем маленькой. Сироту взяли на воспитание дедушка и родная тетя. Замира росла упрямой и своенравной. Закончив школу, совсем отбилась от рук. Часто сбежала из дома, нередко впадала в депрессию и даже пыталась покончить с жизнью, но ее вовремя спасли.

Старший инспектор по вопросам женщин ОПП ОВД № 3 УКД ОВД Юнусабадского района столицы подполковник Кундуз Бахитова сразу пришла на помощь. Она отвезла Замиру в Республиканский центр реабилитации и адаптации женщин. У девушки началась затяжная депрессия, по признанию психологов такого случая в их практике не было давно. Благодаря профессионализму специалистов центра через три месяца Замира пришла в себя, осознала, какие непоправимые последствия могли

ей принести необдуманные поступки. Кундуз Джамбуловна сумела помирить родных людей, которых девушка считала своими врагами, семья стала жить дружно.

Вскоре Замира вышла замуж, прошло немало времени, но девушка до сих пор помнит, как Кундуз Бахитова спасла ей жизнь – ведь она тогда еще была совсем молодой и ничего не понимала. Каждый раз, когда приезжает навестить свою старшую сестру, то всегда встречает инспектора горячими объятиями.

Как рассказывает Кундуз Джамбуловна таких случаев немало в ее практике. Часто между членами семьи возникают конфликты, которые нередко заканчиваются скандалами. И только вмешательство инспектора помогает избежать трагедии, которая может случиться. За этот год выдано 33 охранных ордера. За ней

закреплены 8 махаллей, в их числе сходы граждан «Матонат», «Кашкар», «Минор». Инспектор успевает обойти всех, чтобы проверить все ли спокойно на участке.

Кундуз Бахитова всегда мечтала помогать людям. В 2010 году она окончила Академию МВД, затем была принята на службу инспектором по делам несовершеннолетних в УКД ОВД Алмазарского района. Ее первым наставником стала инспектор по вопросам женщин подполковник Гульчехра Таймурадова. Она научила работе с документацией, особому подходу к людям, неравнодушию к чужим проблемам. В прошлом году Кундуз Джамбуловна была



переведена в УКД ОВД Юнусабадского района, но связи с наставницей не потеряла.

День инспектора расписан по минутам. Надо сходить в махаллю, обойти семьи, стоящие на учете, после чего внести всю информацию в отчет о проделанной работе, который каждый день сдается руководству.

Мардона БАХТИЯРОВА.

★ Лучшие в своем деле

ЖЕНЩИНАМ ВСЕ ПО ПЛЕЧУ

Главный эксперт отдела компьютерно-технических экспертиз ГЭКЦ МВД Республики Узбекистан подполковник Илона Куприянова является единственной женщиной, проводящей экспертизу цифровых устройств в Центральном аппарате МВД. Буквально на днях ей было присвоено звание подполковника, чему она бесконечно рада.

Героиня нашего очерка принципиальна и требовательна к себе. Для нее достойное исполнение служебного долга – само собой разумеющееся.

Илона Михайловна родилась 27 августа 1987 года в городе Ташкенте. В органах внутренних дел служит с 2010 года. Начиная с должности эксперта в отделе идентификации личности.

Выбор направления профессиональной деятельности Илоны был predetermined задолго до поступления в вуз. Отец Илоны, Михаил Николаевич Куприянов, – полковник в отставке. Он прослужил более 40 лет в органах внутренних дел. Благодаря советам отца Илона приступила к службе с желанием помогать людям и восстанавливать справедливость в обществе, нашла любимое дело своей жизни. По стопам отца также пошли его сыновья. Братья-близнецы, Ярослав и Ростислав, оба в звании майоров, служат в Национальной гвардии Республики Узбекистан.

– В системе МВД существует больше 24 видов экспертиз. Семь из них традиционные. У



меня имеется допуск к дактилоскопической, портретной, почерковедческой экспертизе. В 2021 году получила допуск к выполнению экспертизы цифровых устройств, – рассказывает подполковник И. Куприянова.

– Главная трудность для любого молодого специалиста – это связь теории с практикой.

Но с каждым днем службы теория оттачивается в практической работе, и сложности исчезают, – говорит Илона Михайловна.

Героиня нашего очерка с благодарностью говорит о своих наставниках. Своего первого и незаменимого наставника характеризует самыми лучшими словами. Мастерство и опыт ныне по-

койного Геннадия Федоровича Никишина по праву являются достоянием и неотъемлемой частью истории отечественной криминалистики.

В настоящее время за советом, правильным решением вопроса наша героиня обращается к начальнику отдела компьютерно-технических экспертиз подполковнику Шоакромму Шомаксудову. Он всегда рад помочь и направить. В настоящее время под его четким руководством вводится дополнительный вид экспертизы цифровой базы данных и облачных хранилищ.

– Мне по душе моя работа. Рада, что судьба неразрывно «переплелась» со службой в ГЭКЦ. Считаю, что квалифицированный труд эксперта, который сродни творчеству, – одна из базовых основ при расследовании преступлений.

Илона очень любит проводить свободное от службы время в кругу друзей и семьи. Очень благодарна своему супругу Максиму, который всячески поддерживает ее во всем. В семье подрастают двое детей Ульяна и Артемий, которые с нетерпением ждут, когда родители вернуться с работы. Прогулки с семьей и друзьями помогают отвлечься от рабочей рутины, зарядиться положительными эмоциями.

Азиза БОХОДИРОВА,
капитан.

★ «Неделя старшего поколения»

В ЦЕНТРЕ ВНИМАНИЯ – ВЕТЕРАНЫ

Согласно постановлению Кабинета Министров «О мерах по дальнейшему повышению роли и социальной активности старшего поколения в обществе» от 27 сентября 2019 года в первой декаде октября проводится «Неделя старшего поколения».



В рамках недели во всех регионах страны проходят духовно-просветительские, культурно-спортивные мероприятия с участием этой возрастной категории граждан, организуются медицинские осмотры, встречи трех поколений, ряд других акций.

Так, во всех подразделениях органов внутрен-

них дел Джизакской области состоялись встречи трех поколений, на которых ветераны рассказали о своем жизненном пути, поделились богатым опытом, дали советы молодым коллегам. Прошли городские и областной этапы смотра-конкурса «Ветеран-сотрудник года», «Наставник года». Республиканский фи-

нальный этап состоится накануне Дня сотрудников органов внутренних дел.

Также были организованы туры по достопримечательным местам. Ветераны из Галлярала побывали в Бахмальском районе, посетили местную святыню Новка-ота. Бахмальцы осмотрели место паломничества в

Галляральском районе, связанное с именем Саъд ибн Абу Ваккаса. Находясь на заслуженном отдыхе представители сферы из Мирзачульского и Дустликского районов совершили паломнический туризм в Хужай Сероб Зааминского района.

Кроме того, представители УВД проведат-

ли 78 ветеранов в отставке, вручили им подарки. Девяти больным наставникам передали материальную помощь и сельхозпродукцию. Еще пять человек, нуждающихся в лечении, получили направления в санаторно-курортные учреждения.

Соб. корр.



МУЛОҲАЗА

ҚЎШИҒИНГИЗ ҚУЛОҚҚА «НАГРУЗКА»

«Замонавий» ижро

... «Мана пулиз, духиззи кўтариб юринг, эээ-ўғил бола», дея қиз йўлига равона бўлди. Хожатбарор уста йигит «соғ бўлинг», дейиши биланоқ шўх, ўйноқи оҳанглар жўрлигида «Севги бўлди юракка нагрузка, ишқим тушди бирам баланд қизга, вақтида э-е-ий қанча қизни алдадим, буниси бўлди юракка нагрузка...», дея унинг гўёки севиб қолгани ҳақидаги тарона бошланди.

Клип воқеалари ривож қўшиқ сўзлари билан параллел давом этар, хонанда Тошкентга боргани-ю, қанча «талпа»ларда қолгани, ҳатто одам қуригандай ҳалиги қизга шайдо бўлиб қолганидан ўзини аҳмоқ санаб куйлашда давом этаверди. Хуллас, жарангдор мусиқани «сермаъно» ўзбекчарусча қоришиқ сўзлар, клипни «замонавий» ижрога «сингиб кетган» чуқур «мазмун» тўлдирарди.

Шу ўринда хонанданинг, клип қаҳрамонларини жонлантирган «юлдуз»ларнинг ижрочилик маҳорати алоҳида мавзулигини таъкидлашимиз керак. Афсус, кейинги вақтларда бундай «ижод намуналари» бемаза қовуннинг уруғидек тобора кўпайиб бормоқда. Баъзан уларни тинглаб, томоша қилганда, қўшиқчилигимиз хийла издан чиқиб кетмаяптимикин, деб ўйлаб қоласан, киши. Бундай қўшиқлар замона зайли билан бугун ёшларнинг кайфиятига мос бўлиши мум-

кин. Аммо уларнинг маънавиятига нима беради? Ташвишлиси, айна пайтда енгил-елпи, миллий менталитетимизга ёт бўлган, ўта маиший, бачканаликларга тўла клип ва қўшиқларга мухлислар аудиторияси ҳам шаклланиб улгурди, ҳатто тобора кенгайиб бормоқда.

Яна бир жиҳат: бундай «йўналиш»га ҳавасманд бўлиб, санъат оламига кириб келаётган ёш ижрочилар икки-уч қўшиғи билан гўёки, санъат ривожига «муносиб ҳисса» қўшиб қўйгандек, ўзларини «юлдуз» санаётганига нима дейсиз? Уларнинг дадил фикрлари-чи? Агар ижрочиликдаги «замонавийлашув» шу тахлит давом этса, ўзбек қўшиқчилиги санъатининг эртаси қандай бўларкин-а?..

Маъно-мазмун қани?

Яна бир мисол: «Учради манга так красавица, вай буни лаблари манга улыбається, фигуралари чўткий, вай-дод красата, жоничкам моя блататта...» Бу қўшиқнинг ижрочиси кимлиги муҳиммас, аммо у ижтимоий тармоқларда нафақат ўзимизнинг, балки миллионлаб хорижлик тингловчиларнинг эътиборига тушди. Замонавий ёндашув, ўзига хос ижро, хўп майли, бунисига қаршилигимиз йўқ, бироқ миллионлаб тингловчилар қўшиқ матни тили, мазмуни билан қизиқдимикин?

Тўғри, санъат миллат танламайди. Лекин бу хоҳлаган тилдан хоҳлаган сўзни қофияга мослаб, қўшиқ яратиш дегани эмас-ку, ахир. Ҳар бир гапда маъно, мазмун, ишда мантиқ бўлиши керак эмасми? Ҳа, айтганча, ана шундай «иқтидор» эгаларини тижорий телерадиоканаллар «эстрадамиз юлдузи», дея эътироф этиши ҳам бор гап.

гишли экани ҳам бор гап. Ҳар бир соҳада профессионалик нуқтаи назари борлигини инобатга олсак, юзаки санъат «асар»ларини вақт шамоли учириб, унуттириши ҳам очиқ ва аччиқ ҳақиқат. Чунки ундаги моҳият, мазмун худди пуч ёнғоққа ўхшайди-да. Уни чақсангиз ичи пуч...

Кўнгилда кўз очган ташаббуслар ҳар доим, ҳар жиҳатдан тўқис бўлмаслиги мумкин. Бунда таҳлил эртанги кун, келажак мевасидир. Демак, бугун қўшиқчилик санъатидаги «замонавийлашув»га қоришиқ (агар таъбир жоиз бўлса, албатта) тароналарни бир қур назар солиб, жиддий таҳлил қилиш керак. Акс ҳолда, бачкана, ўта майдалашиб кетган маиший мавзулар қўшиқ сўзлари, сахнага, экранга кўчаверади.

Демоқчимизки...

Ярашган кийим инсонга зеб, дейишади. Ярашмагани эса...

Инсоннинг ҳар бир хатти-ҳаракатидан тортиб касб-кори, бунга санъат ҳам киради, албатта, унинг қалби, қиёфасида акс этади. Шундай экан, айнан қўшиқчиликдаги замонавий «ёндашув»лар унинг сўзларидек юракка, қулоққа «НАГРУЗКА» бўлмаслиги учун бонг уришимиз шарт.

Гулноза ТУРФУНБОЕВА,
ўз мухбиримиз.

– Қўшиқ қилмоқчимисан?
– Ҳа. Яхши шоир билан таништиринг.
– Ие, шоирни нима қиласан, тўрт қатор нарса ёзолмайсанми?
– Қофияни тушунмайман-да...
– Қофиясини тушуниб, нима, шоир бўлмоқчимисан ёки қўшиқчи?
– Албатта, қўшиқчи-да.
– Унда нега қофияляпсан? Бугун нима иш қилганларингни манави қозоғга ёзиб кет, душанбагача куй басталаб қўяман...

Чумчуқ сўйса ҳам...

«Чумчуқ сўйса ҳам, қассоб сўйсин» деган мақол бежиз айтилмаган. Аммо бугун бошловчилар, актёрларни кўя турайлик, блогерлардан тортиб вайнерларнинг қўшиқ куйлаши, клипларда кўриши беришига ўрганиб қолдик. Матн, куй, ижро, аниқроғи, уч муҳим жиҳат бир ижодкорга те-

АШУЛАНИНГ ФАРҚИ

Бир даврада хонанда ва қўшиқчилик санъати ҳақида гурунглашаётган эдик. Дўстлардан бири сўраб қолди:

– Мен катта ашула, кичик ашула деган гапларни умуман тушунмайман. Бу нима дегани ўзи?

Бундай маҳалда ҳамиша ўқланган милтиқдек тайёр турадиган Мирпўлат Мирзо жавоб қилди:

– Агар ашулани тик туриб айтсангиз — катта ашула, ўтириб айтсангиз — кичик ашула бўлади, биродар.

Шодмон ОТАБЕК.



Рассом: Ҳусан СОДИҚОВ.



KITOBXON XODIM

SHE'RIYATGA OSHNO INSPEKTOR

Shofirkon tumani IIB JXX HPB profilaktika inspektori, katta leytenant Azizbek Abdullayev 2020-yili IIV Akademiyasini tugatgach, ichki ishlar organlaridagi dastlabki xizmat faoliyatini tumandagi «Bobo Ato» mahalla fuqarolar yig'ini boshladi. Ko'p o'tmay rahbariyat g'ayratli va ishchan xodimni tuman markazidagi «Tinchlik» mahalla fuqarolar yig'ini hududiga profilaktika inspektori etib tayinladi.

– Ustozim mayor Yoqub Salimov «Profilaktika inspektori o'zi xizmat qiladigan hududning yuragiday bo'lishi kerak. Mahallada sodir bo'lgan yoki sodir bo'lishi mumkin bo'lgan hodisadan birinchilardan bo'lib xabardor bo'lmog'i lozim», deya ko'p takrorlaydi, – deydi katta leytenant Azizbek Abdullayev. – Mahallada o'ndan ortiq muassasalar joylashgan. Tabiiyki, hududimizga kelib-ketuvchilar ko'pchilikni tashkil qiladi. Huquqbuzarlik holatlarining aksariyati ham ular tomonidan sodir etilmoqda.

A. Abdullayev xizmat qilayotgan hudud ayni paytda «sariq» toifada. Qahramonimiz mahallani «yashil» hududga aylantirish maqsadida faollar bilan hamkorlikni yanada mustah-

kamlab, kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko'ryapti.

– Otam Alisher Obidov ziyoli inson, – deydi Azizbek Abdullayev. – Aqlimni taniganimdan buyon uyimizda kitob mutolaa qilinadi. Onam uy bekasi bo'lsa-da, kitob o'qishni odatga aylantirgan. Men ham ularga ergashib, kitobga mehr qo'yganman. Xudoyberdi To'xtaboyevning «Sariq devni minib» asari yod bo'lib ketgan. O'tkir Hoshimovning «Dunyoning ishlari» asari va «Daftar hoshiyasidagi bitiklar» kitobi eng sevib o'qiydiganlarimdan. Xullas, jamiyatda o'z o'rnimni topishimda, yurt koriga yaraydigan inson bo'lishimda kitoblarning ahamiyati katta bo'lgan.

Lavhamiz qahramoni ona, Vatan, sadoqat va mehr-muhabbat haqida she'rlar mashq qilardi. Uning «Jilg'a» nomli ilk she'riy kitobchasi ham chop etilgan. IIV Akademiyasida tahsil olinganda «Badiiy havaskorlar» to'gariga qatnashib, turli tadbirlarda faol ishtirok etgan.

Darvoqe, katta leytenant A. Abdullayev uch yillik xizmat faoliyati davomida ichki ishlar organlari xodimlari o'rtasida o'tkazilgan «Zukko kitobxon», «Yosh kitobxon» tan-



lovlari hamda «Zakovat» intellektual o'yinlarida faol qatnashib kelmoqda. 2021-yili «Zukko kitobxon» tanlovining tuman IIB bosqichida birinchi bo'lgan bo'lsa, 2022-yili «Yosh kitobxon» tanlovining viloyat bosqichida ham yakkalikda, ham jamoa tarkibida qatnashib, birinchi o'rinni qo'lga kiritdi. 2023-yili esa «Zakovat» intellektual o'yinida tuman

IIB jamoasi tarkibida ishtirok etib, jamoaning birinchi o'rin egallashiga hissa qo'shdi.

Ishonamizki, katta leytenant Azizbek Abdullayev xizmatda ham, kitobxonlik borasida ham hali ko'plab muvaffaqiyatlarga erishadi.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

IKKINCHI ISTE'DOD

KURASH — ERKINLIK DEMAKDIR

U faqat g'olib bo'lsagina, o'zini qushdek yengil his qiladi. G'alaba nashidasi shunchalik kuchli hayajon beradiki, go'yoki oldida turgan barcha to'siqlarni yengib o'tgandek bo'ladi. Bolaligidan anglab yetgani — faqat kuchlilargina g'olib bo'lishga haqli.

Guliston tumani IIB VEMB inspektor-psixologi, katta serjant Nigora Bakirovaning hayot falsafasi shunday shakllangan. Bu falsafa uning erkin kurash bo'yicha olti karra O'zbekiston chempioni bo'lishida asqatdi.

1998-yilda Sayxunobod tumanida dunyoga kelgan Nigora yoshligidan sportning erkin kurash turi bilan shug'ullanishni boshladi. Dastlab tuman miqyosidagi musobaqalarda

g'oliblikni qo'lga kiritdi. Gulistondagi Olimpiya zaxiralari kollejida yulduzi porladi. Toshkentda bo'lib o'tgan erkin kurash bo'yicha O'zbekiston chempionatida o'rta yengil vaznda raqibi samarqandlik erkin kurashchini dastlabki soniyalardayoq mag'lub etdi. Uning xatti-harakatini keyingi raqibi ham e'tiborga olmadi. Dastlabki turdagi natijani tasodifga yo'yishdi. Lekin sirdaryolik sportchi musobaqaning eng yuqori pog'onasiga yetib borganida tan bermaslikning ilojini topa olishmadi. Farg'onalik kurashchi qiz yerga gursillab tushganida, zal «uvvvv» deb yubordi. Nigoraning ilk bora O'zbekiston chempionligini qo'lga kiritishi shu tarzda yodda qolgan. Shundan keyin oz emas, ko'p emas olti marta mamlakat chempionligini qo'lga kiritdi. Bu orada Guliston davlat universitetini Jismoniy madaniyat yo'nalishi bo'yicha bitirdi.

Guliston tumani IIB VEMB inspektor-psixologi vazifasiga esa asl sportchi, kurashchi bo'lib toblangan Nigora Bakirova tuman yoshlari bilan tezda til topishib ketdi. Kun bo'yi yoshlar bilan shug'ullanar, ayniqsa, tarbiyasi og'ir bolalar doimiy nishonida bo'ldi. Kechga yaqin



esa tuman markazida sportga oshno o'n-o'n besh o'g'il-qizga saboq berishga ham ulguradi. Hozirda o'ndan ortiq shogirdi bor. O'zi ham katta marralarni ko'zlagan. Osiyo va boshqa yuqori maydonlarda g'olib bo'lishni niyat qilgan.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.



IIB rahbariyati, шахсий таркиби ва Фахрийлар кенгаши вазирлик Жамоат хавфсизлиги департаменти Хуқуқбузарликлар профилактикаси хизмати бошлиғи, полковник Бахтиёр Бердиалиевга падари бузруквори
Эркин отанинг
вафоти муносабати билан ҳамдардлик билдиради.



ODAM SAVDOSI – OLAM MUAMMOSI

SOTILAYOTGAN ODAM, SOTAYOTGAN-CHI?

Sotilish turlicha bo'ladi: yovga sotilish, vijdonni sotish, do'stni sotish. Lekin pul ilinjida odamni sotishdek jirkanchlik ham borki, bunda qiyofasini yo'qotgan kimsa vatan, vijdon, do'stlikka qo'shib, birato'la odamiyigini ham sotib yuboradi.

Sardoba tumanida yashovchi Gulmira Madaminova (ism-shariflar o'zgartirildi) kollejni tugatgach, tayinli ish topa olmadi. Bu orada qo'shni mahalladagi No'monjon bilan turmush qurdi. Lekin taqdir ekan, eri bir yilga yetar-etmay kasallikdan vafot etdi. Gulmira karaxt bo'lib qoldi. Olti oy uydan chiqmay o'tirdi. Kuni bilan yig'lar, onasi uni yupatishga urinar, lekin bu foyda bermasdi.

to'g'rilashga ikki oy vaqt ketdi. Qizlar uchun shu ikki oy ikki yildek tuyuldi. Ular hech narsaga e'tibor berishmasdi. Hatto otalari, akalarning qarshiligiga, onalarining dakkisiga ham...

Bangkok aeroportida qizlarni Temur ismli shaxs kutib oldi. Ular kirib kelgan mehmonxona atrofi devor bilan o'ralgan, to'rt qavatli kichikroq majmua ekan. Kiraverishda tay millatiga mansub ayol

Temur shafqatsiz odam ekani ma'lum bo'ldi. U qizlarni bu yerga yetib kelishi uchun katta pul sarflaganini, pullarni chiqarib berishlari zarurligini aytib, zug'um qildi. Qizlarning qiy-chuvi, yig'isi, yalinishlariga e'tibor ham bermadi. Naomi xonim esa qizlarning bo'ysunmasligini kaltak bilan sindirishga kirishdi. Shundoq ham och-nahor qizlarning holi qolmadi...

Oradan uch oy o'tgach, Gulmira mehmonxona darvozasi kechqurun erkak mijozlar uchun yetti-sakkiz marta ochilishini bilib oldi. Lekin bu paytda qochishning



Odamsod har narsaga ko'nikar ekan. Gulmira vaqt o'tgach, sekin-sekin hayotga qayta boshladi. Avval dala ishlariga qarashib yurdi. Lekin kunlik ishdan topgani kundalik xarajatlardan ortmasdi. Ish izlay boshladi. Pedagogika kollejining diplomi hech joyda o'tmasdi.

Bir kuni taksida ketayotib, Zinnura ismli ayol bilan tanishib qoldi. Ishbilarmon ayol ekan, Sardobaga tikuvchilik korxonasi ochish uchun kelibdi. Gulmiraga liboslar dizaynerligida o'zini sinab ko'rishni taklif qildi. Rozi bo'lsa, Tailandga yuborishini, u yerda tajriba orttirishini qo'shib qo'ydi. Bu gaplardan Gulmiraning boshi yettinchi osmonga yetdi. Nahotki, ko'nglining eng tubidagi niyatlari ro'yobga chiqsa? Nahotki, turmush qiyinchiliklari nihoyasiga yetsa? Shu tariqa, telefon raqamini Zinnuraga berganini bilmay ham qoldi. U yana qizlar bormi, deb so'raganida esa, bir necha yaqin dugonasining ham raqamini berdi.

Zinnura ayolning qo'li ochiq ekan. Bo'lajak tikuvchi, dizayner, modelyer – uch dugonaning viza, samolyot chiptalari xarajatlarini o'z zimmasiga oldi. Hujjatlarni

qarshi oldi. Qizlar kirishi bilan mehmonxona eshigi yopildi. O'zini Naomi, deb atagan ayol ularni xonalarga joylashtirdi. Nimagadir mehmonxona o'ta sokin edi. Qizlarning savoliga kunduz kuni odam kam bo'ladi, deb izoh berishdi. Temur mehmonxonadan chiqish mumkin emasligini, mahalliy politsiya o'ta shafqatsiz ekanini ta'kidladi. Hozircha hujjatlar chala. Shuning uchun bir-ikki kun kutish kerakligini tayinladi.

Kechga yaqin politsiya tekshiruvchi bor, deya qizlarning xonasini qulflab qo'yishdi. Sardobaning keng dalalarida erkin o'sgan qizlar bu ahvoldan sarosimaga tushishdi. Naomi xonim Temur yordamida «bu vaqtincha», deb ularni tinchlantirdi. Birinchi kun shu tariqa o'tdi. Qizlar uydan olib kelgan shirinliklari bilan taomlanishdi. Ikkinchi kuni ham eshik ochilmadi. Ularni «o'qitishi kerak bo'lgan firmani politsiya bosib, ancha vaqtgacha faoliyat ko'rsatmasmish». Bu xabardan Gulmira boshchiligidagi qizlar dovdirab qolishdi. Ular Temurdan uyga qaytarishini so'rashdi. Buning iloji yo'qligi aytili.

Hammasi beshinchi kunda boshlandi. O'ta xushmuomala

iloji yo'q edi. Naomi u va sheriklarini turli mijozlarga xizmat qilishga majburlardi. Saharda esa oziq-ovqat mashinasi kelib-ketardi. Shu paytda orqa davozga ochilardi. Nihoyat, bir amallab hovliga chiqib olishga muvaffaq bo'ldi. Mashinalardan biri ichkariga bosh suqishi bilan tashqariga o'tildi. Ortidan quvib chiqqan qo'riqchilardan jonholatda qochayotgan qizga hamma ajablanib qarar, uning begona tildagi iltijosiga hech kim quloq solmasdi. Nihoyat, yo'lidan politsiya xodimi chiqdi. Quvib kelayotganlar qayoqqadir g'oyib bo'ldi. Do'zax maskanidan chiqib kelgan Gulmira politsiyaga taslim bo'ldi.

O'zbekistonning Tailanddagi elchixonasi orqali xabar keldi. Yuborilgan xat va hujjatlarda uyushgan guruh a'zolari to'g'risida ma'lumot ham bor edi. Sirdaryo viloyati ichki ishlar organlarining tezkor xodimlari Zinnura va uning ikki sherigini tezda qo'lga olishdi...

Bahriddin SOIBNAZAROV,
mayor,
Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.

ESLATMA

FIRIBGARLAR QURBONIGA AYLANMANG!

■ Agar ishlash yoki o'qish uchun chet el davlatlariga ketayotgan bo'lsangiz, shartnoma SIZga tushunarli tilda tuzilayotganini nazorat qiling. Unda sizning ish yoki o'qish joyingiz, shart-sharoit, yashash manzilingiz va ish vaqtingiz aniq ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

■ Shaxsingizni tasdiqlovchi hujjatlaringiz va pasportingiz har doim yoningizda bo'lsin. Pasportingizni hech kimga bermang!

■ Oila a'zolaringiz va do'stlaringizga chet davlatdagi manzil va telefon raqamlaringiz haqida to'liq ma'lumotlarni, pasportingiz va shartnoma nusxalarini qoldiring.

■ O'zingiz ketayotgan xorijiy davlatdagi O'zbekiston Respublikasining elchixonasi va konsullik vakolatxonalarining telefon raqamlarini ketishingizdan oldin aniqlang.

■ Agar siz qiyin ahvolga tushib qolsangiz, albatta, yaqinlaringiz bilan bog'lanishga harakat qiling va ulardan huquqni muhofaza qiluvchi mutasaddi organlarga murojaat qilishlarini so'rang.



■ Agar pasportingizni O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida yo'qotib qo'ygan bo'lsangiz, shaxsingizni tasdiqlovchi hujjatni olish uchun ushbu davlatdagi O'zbekiston Respublikasi elchixonasi va konsullik vakolatxonalariga murojaat qiling.

■ Hech qachon davlat hududlarini soxta yoki qalbaki hujjatlar bilan kesib o'tmang!

■ Xorijiy davlatning hududida bo'lishingiz muddati vizada ko'rsatilgan. Unga amal qiling. Viza tizimini buzsangiz, sizni jinoiy javobgarlikka tortishlari va ushbu davlatga keyingi kirishingiz ta'qiqlab quyilishi mumkin.

■ Siz ishlash uchun borgan chet davlatda huquqingiz buzilayotgan, insoniylik qadr-qiyimatingiz kamsitilayotgan yoki xavfsizligingizga tahdid qilinayotgan bo'lsa, shu kabi holatlarga tushib qolgan chet el fuqarolariga yordam ko'rsatuvchi xalqaro va nodavlat tashkilotlarga murojaat qiling.

www.migration.uz

Salomatlik saboqlari

Gripp yuqumli kasallik bo'lib, uni viruslar qo'zg'atadi. Virus bemor odamdan sog'lom odamga aksirganda, yo'talganda yoki gaplashganda bemor og'iz va nafas yo'lidan chiqayotgan mayda tomchilar orqali yuqadi. Aynan shu sabab jamoat joylarida tez tarqaydi. Kasallik shuningdek, qo'l bilan salomlashganda ham yuqishi mumkin. Bemor foydalangan idish-tovoq, sochiq, ko'rpa-to'shaklarda ham viruslar ma'lum muddat saqlanib qoladi. Agar undan sog'lom odam foydalansa kasallik yuqadi.

Kasallikning yashirin davri bir necha soatdan 2 kungacha davom etadi. Kasallik keskin boshlanib, bir necha soat ichida bemorda isitma, yo'tal, bosh og'rig'i, mushaklar va bo'g'imlarda og'riq, darmonsizlik, tomoq yallig'lanishi, burun oqishi paydo bo'ladi. Aksariyat odamlar bir hafta ichida davolanmasdan tuzalib ketishadi. Ammo xavf guruhi ostidagi gripp jiddiy oqibatlariga va o'limga olib kelishi mumkin.

Mavsumiy gripp davrida har yili kattalarning 5-10 foizi, bolalarning 20-30 foizi grippga chalinadi. Aksariyat insonlar kasallikka dosh berishga qodir, ammo yiliga 3-5 million odam grippning og'ir turini boshdan kechiradi. Bu esa dunyoda

ASORATI O'ZIDAN HAM XAVFLI

Sovuq mavsumda aholi uchun asosiy muammo gripp va yuqori nafas yo'llarining shamollash kasalliklari hisoblanadi. Bu kasalliklar yil davomida uchrab tursa-da, kuzning oxiri va qish mavsumida juda ko'p kuzatiladi. Shu sababli aholi orasida keng tarqaladigan yuqori nafas olish yo'llarining shamollash kasalliklari va grippning kelib chiqishi, belgilari, davolash va oldini olish choralari to'g'risida ma'lumot berishni joiz ko'rdik.

250-500 ming, ba'zida 1 milliongacha kishining o'limiga olib keladi.

Nimalarga e'tibor berish kerak?

Kasallikning barcha turida bemorni alohida xonaga yotqizish, boshqalardan to'liq izolyatsiya qilish, idish-tovoq va boshqa jihozlardan alohida foydalanish, xonada me'yoriy haroratni saqlash, muntazam toza havo bilan shamollatib turish zarur. Aksariyat hollarda maxsus davolash talab etilmaydi. Kasallik kechishiga qarab isitma tushiruvchi va yallig'lanishga qarshi dori vositalaridan, turli spreylardan foydalaniladi. Grippda suvsizlanishdan saqlanish uchun ko'p suyuqlik ichish juda muhim. Ayniqsa S vitamininga boy bo'lgan na'matak damlamasi, malinali yoki limonli choy, meva kompotlari, shuningdek asal choy ham yaxshi foyda beradi.

Grippning oldini olishda tavsiyalar

Sog'lom odam imkon qadar bemor bilan muloqotda bo'lishdan saqlanishi kerak. Agar odam o'zini yomon his qilib, o'zida gripp belgilari boshlanayotganida bilsa, boshqalarga yuqtirmasligi uchun iloji boricha boshqalar bilan aloqa qilishdan saqlanishi, darhol doka niqob taqishi zarur.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, virus tarqalishining oldini olishning asosiy choralardan biri sifatida qo'lni sovun bilan muntazam yuvib turishdir. Jamoat joylariga borganda ko'z va burunga tegmang. Qish mavsumida kasallikning oldini olish uchun umumiy chora-tadbirlarga amal qilish kerak, ya'ni sovuqqotishning oldini olish uchun uy va ish joylarini isitilishi 18° S kam bo'lmasligi kerak. Xonalarda yelvizaklardan saqlanish, tana va boshni issiq tutish uchun mavsumga



mos issiq kiyim kiyish zarur. Immunitetning mustahkamligi kasallikning og'ir kechishidan saqlaydi, shu sababli mehnat va dam olishni to'g'ri tashkil qilish, o'ta charchashdan saqlanish, oqsil, mineral va vitaminlarga boy mahsulotlarni iste'mol qilish kerak. Xonalarni muntazam shamollatish, yuzalarni nam latta bilan artib turish kasallik tarqalishining oldini oladi.

Mavsum oldidan, ya'ni oktabr-noyabr oylarida grippga qarshi vaksinatsiya qilinsa, 50-60 foiz vaksina olgan odamlarga kasallik yuqmaydi yoki yengil kechadi. Shuni yodda tutish kerakki, vaksina grippning boshqa kasallik chaqiradigan variantlariga,

yuqori nafas yo'llarining shamollash kasalliklarini keltirib chiqaradigan boshqa viruslar (paragripp, adenoviruslar, respirator sinsial, rinoviruslar) va bakteriyalarga qarshi immunitet ishlab chiqmaydi. Grippdan farqli o'laroq bu kasalliklar odamlar orasida keng tarqalmaydi, yengil kechadi, ko'pincha isitma bo'lmaydi, bir haftaga bormay bemor asoratsiz tuzalib ketadi. Faqat ayrim immuniteti past odamlardagina og'irroq kechishi mumkin.

Inoyatillo MA'MUROV,
Farg'ona viloyati IIB
Tibbiyot bo'limi SENM
katta epidemiolog shifokori,
katta serjant.

ПОПАЛИ ПОД ДОЖДЬ:
ОБЯЗАТЕЛЬНО ЛИ БОЛЕТЬ?

Вопрос, почему человек может заболеть, если попал под дождь, многих ставит в тупик. Действительно, сам по себе дождь не переносит возбудителей инфекции. Но если человек промок, повышается вероятность переохлаждения: мокрая кожа быстрее теряет тепло, а мокрая одежда усиливает охлаждение. Такая же ситуация возникает, когда промокает только обувь и замерзают ноги. Переохлаждение замедляет обмен веществ и работу иммунной системы. Если в это время в организм попадают вирусы или бактерии, то они не встречают сопротивления. Иногда возбудители болезни уже есть в нашем организме – при хроническом насморке или аденоидах. В этом случае иммунитет перестает их сдерживать.

Согревание

Дня начала следует снять мокрую одежду и обувь. Насухо вытрите тело и ноги, переоденьтесь в сухие вещи.

Можно принять теплый душ или ванну, а затем слегка растереть тело полотенцем и переодеться в сухое. Еще одна эффективная водная процедура – ванночка для ног. Она длится от 15 до 20 минут. Вода должна быть теплой, но не горячей. Можно добавить в воду порошок горчицы. Такие ванночки помогают ногам быстрее со-

греться, активируют кровообращение.

Избежать простуды позволят и согревающие растирания. Растирания спины и груди улучшают кровообращение, стимулируют работу иммунной системы.

Если дождь застал вас в дороге и нет возможности попасть домой, зайдите в ближайшее кафе или другое помещение, где можно хотя бы немного обсохнуть и согреться.

Согреться помогут и теплые напитки (компот, морс, чай с медом и лимоном), еда (нава-



ристый суп, мясные блюда). Они ускоряют обмен веществ, восполняют энергозатраты.

Уменьшаем риск встречи с инфекцией

Снизить риск заболевания позволит вдыхание паров эфирных масел, обладающих антибактериальным и противовирусным действием. Они уничтожают вирусы и бактерии, которые находятся в воздухе, тем самым уменьшая вероятность встречи организма с возбудителями простудных заболеваний.

НАРОДНЫЕ СРЕДСТВА
ОТ УСТАЛОСТИ

Недостаток энергии и жизненных сил человек может испытывать в любом возрасте и в любое время года.

В холодное время года это состояние ощущается наиболее остро. Именно поэтому становится весьма актуальной тема возвращения себе бодрого настроения и духа.

Попробуйте простые рецепты.

Орехово-медовая смесь с лимоном

Это средство придаст организму силы, насытит энергией и подарит заряд бодрости в течение всего дня.

Необходимо в один стакан очищенных грецких орехов добавить один измельченный лимон. Туда же добавить стакан натурального меда, тщательно перемешать. Принимать средство следует по одной столовой ложке три раза в день.

Для детей и взрослых

Возьмите изюм без косточек, ядра грецких орехов, курагу по одному стакану, мед натуральный – 1,5 стакана, два лимона с кожурой. Сухофрукты хорошо промойте, лимоны очистите от косточек. Все перекрутите на мясорубке, залейте медом и перемешайте. Принимать, как общеукрепляющее средство: взрослым – 3 раза в день, по столовой ложке. Детям давать трижды в день по чайной ложечке.

Перед применением обязательно посоветуйтесь с врачом.



★ Фотофакт

ДРУЖБА НАВЕКИ



Чингиз Айтматов, Одил Якубов и Мухтар Шаханов.

Чингиз Айтматов (1928-2008)

Киргизский прозаик, дипломат, писатель, публицист и общественный деятель. Народный писатель, Герой Кыргызской Республики.

Книги Айтматова были переведены на 176 языков мира, изданы в 128 странах. По произведениям писателя было снято свыше 20 фильмов.

Одил Якубов (1926-2009)

Выдающийся узбекский писатель. Народный писатель, лауреат Государственной премии имени Хамзы, награжден орденами «Дўстлик» и «Эл-юрт хурмати», академик.

Являлся известным общественным деятелем. До конца своей жизни крепко дружил и общался с такими всемирно известными национальными писателями, как Чингиз Айтматов, Абжамил Нурпеисов, Калтай Мухамеджанов, Чабуа Амириджиби,

Азиз Несин, а также с поэтами Расулом Гамзатовым, Мустаем Каримом, Мухтаром Шахановым и многими другими.

Мухтар Шаханов (1942 год)

Выдающийся казахский поэт, писатель, драматург, произведения которого переведены на многие языки мира, известный политический и общественный деятель. Герой Труда Казахстана. Народный писатель Казахстана. Народный поэт Кыргызской Республики.

Он является академиком Международной Калифорнийской академии наук (США), профессором ряда отечественных и зарубежных академий и университетов, лауреатом премии программы ООН по окружающей среде, международных премий Турецкой Республики «За заслуги в Тюркском мире», «Руханият» Кыргызской Республики и других.

Это нужно знать

Республика Узбекистан расположена в междуречье Амударьи и Сырдарьи и занимает площадь **448,9 тыс. кв. км.**

Протяженность территории республики с запада на восток – **1425 километров**, с севера на юг – **930 километров.**



Территория на севере и северо-востоке граничит с **Казахстаном**, на востоке и юго-востоке – с **Кыргызстаном** и **Таджикистаном**, на западе – с **Туркменистаном**, на юге – с **Афганистаном.**

Общая длина государственной границы составляет **7090,12 километров.** Протяженность границ с Афганистаном – **143 км.**, с Казахстаном – **2356,31 км.**, с Кыргызстаном – **1476,12 км.**, с Таджикистаном – **1283,2 км.** и с Туркменистаном – **1831,49 км.**

MUNAJJIMLAR BASHORATI

(16-22-oktabr)



Qo'y. Ushbu hafta sizga uzoq kutilgan sokin hayotni tuhfa etadi. Osoyishtalik va farog'at uyg'unligini buzmaslik uchun har qanday vaziyatda o'zingizni tutib, og'irroq bo'lishga harakat qiling. Bu davr yangi rejalar tuzish va ularni amalga oshirish yo'llarini izlash uchun juda qulay.



Buzoq. Ayni davr o'zingizga vaqt ajratish uchun qulay vaqtdir. Ishda rag'batlantirish olish yoki lavozimingiz ko'tarilishi ehtimoli yuksak. Lekin hissiyotga berilib, xatoga yo'l qo'yish mumkin bo'lgan vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin. Dam olish kunlari imkon qadar oila davrasida hordiq oling.



Egizaklar. Haftaning birinchi yarmi biroz og'ir kechadi. O'zaro tushunmovchilik va murosaga kelmaslik atrofdagilar bilan munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Haftaning so'ngida kayfiyatingiz ko'tarilib, qo'l urgan ishlaringiz oson va yengil hal bo'la boshlaydi. Dam olish kunlarini oilangiz davrasida o'tkazish tavsiya etiladi.



Qisqichbaqa. Jamoatchilik ishlarini shaxsiy hayotingiz bilan birga olib borishga harakat qiling. Davr bilan hamnafas bo'lib, bor bilimlarni yangilari bilan uyg'unlashtiring. Xizmatdoshlar uchun umumiy manfaatlarni ko'zlovchi insonga aylaning. Jizzakilik va ta'sirchanlikni unuting, faqat shundagina muvaffaqiyatga erishishingiz mumkin.



Arslon. Hafta boshi og'ir va muammoli kechadi. Bu kunlarda beparvolik tufayli xatoga yo'l qo'yishingiz, atrofdagilar bilan ziddiyatli vaziyatlar yuzaga kelishi, ish samaradorligi pasayishi mumkin. Har qanday janjal va tortishuvlardan uzoq turib, hech kim bilan nizoga bormaslikka harakat qiling.



Parizod. Shu kunlarda sizdan ham jisman, ham ruhan bardoshli bo'lish talab etiladi. Kutilmagan muammolar yuzaga kelishi mumkin. Bu davrda hishayajonlaringizni boshqarib, imkon boricha bosiqlik bilan harakat qiling. Hafta oxiriga borib barcha masalalar birin-ketin hal bo'lib, xotirjam dam olish imkoniyatiga ega bo'lasiz.



Tarozi. Shu haftada o'rnatilgan munosabatlar muvaffaqiyatli va yuqori darajada kechadi. Ammo yangi ishlarga kirishish uchun bu davr to'g'ri kelmaydi. Moliyaviy masalalarda tejamkor bo'ling, chunki belgilangan maqsadlarga erishish uchun pul jamg'arish zarur. Rejalaringizni hech kimga ayon qilmay, uning amalga oshishiga aniq ishonch hosil qilgunga qadar sir saqlaganingiz ma'qul.



Chayon. Kirib kelayotgan haftada sizni yangi taassurotlar va yorqin his-tuyg'ular kutmoqda. Salomatlikka jiddiy e'tibor qaratib, o'zingizga biroz dam bering va kelgusi uzoq muddat uchun kuch-quvvat yig'ing – bu sizga hozir juda zarur. Oila a'zolaringizga ko'proq vaqt ajratishga harakat qiling.



O'qotar. Hafta boshi faol va qat'iy harakatlarni talab etadi. Yangi tanishuvlar nafaqat foyda olib keluvchi aloqalarni o'rnatish, balki ajoyib insonlar bilan tanishish imkoniyatini beradi. Ishbilarmon odamlar uchun bu hafta omadli keladi. Hamkasblar bilan munosabatlar mustahkamlanadi, lekin oilaga yanada ko'proq e'tibor qaratish talab etiladi.



Tog' echkisi. Ba'zi ishlar ko'ngildagidek ketmayotgan bo'lsa, tushkunlik va umidsizlikka tushmang. Tez orada bularning hammasi yaxshilikka bo'lganini anglab yetasiz. Shaxsiy hayot borasida hushyor va sinchkov bo'lgan ma'qul. Biron tanlov oldidan ko'p karra yaxshilab o'ylab ko'rishni unutmang. Bu hafta ish bilan bog'liq uchrashuvlar uchun muvaffaqiyatli davrdir. Omadingizni qo'ldan boy bermaslikka intiling.



Qovg'a. Dushanba va seshanba kunlari moliyaviy ahvolingiz yaxshilanib, shu kunlarda sarmoyali takliflar olishingiz mumkin. Ayni hafta faol harakatlar davri bo'lib, kelgusi muvaffaqiyatlarga erishish va faoliyatda yordam beruvchi foydali aloqalarni o'rnatish uchun yaxshi imkoniyatdir. Hordiq kunlarida vaqtni huzur va halovatda o'tkazgan ma'qul.



Baliq. Mazkur hafta siz tanlagan yo'l to'g'ri va samarador ekanini ko'rsatadi. Ko'tarinki kayfiyat atrofdagilar va yaqinlaringiz bilan munosabatlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'z mablag'laringizni natijali loyihalarga sarflang. Fikr-o'ylaringizga quloq tutib harakat qiling, ular chinakam yo'naltiruvchi kuch hisoblanadi. Lekin chetdan aytilgan foydali maslahatlarni ham be'etibor qoldirmang.



BIR QO'SHIQ TARIXI

YURAK DAN YARALIB,
LARNI ZABT ETGAN

Qo'shiqlar bo'ladiki, so'zlari uchungina eshitiladi. Qo'shiqlar bo'ladiki, faqat musiqasi uchun tinglanadi. Yana shunday qo'shiqlar ham borki, she'r va musiqa uyg'unlashgan, go'yoki bir-biri uchun yaratilgandek taassurot uyg'otadi odamda. Bunday ijod namunalari xalq qalbidan chuqur joy olib, yillar davomida zarracha qiymatini yo'qotmay yashab kelaveradi.

«Oyning o'n beshi qorong'u...» misrasi bilan boshlanuvchi o'lmas taronani bunga misol qilib keltirishimiz mumkin. Ushbu qo'shiq ilk bor O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, o'z vaqtida

Ichki ishlar vazirligining «Turon yulduzlari» ansambilida faoliyat olib borgan san'atkor Muhriddin Xoliqov repertuarida paydo bo'lib, muxlislar olqishini olgan.



Tog'u toshlarning chiroyi, lola, gul, ohu bilan, Xasta ko'nglimning quvonchi ul kamon abru bilan. Naylayin, dardimga parvo qilmading kulgu bilan, Oyning o'n beshi qorong'u, o'n beshi yog'du bilan, Umrini oshiq hamisha o'tkazar orzu bilan.

Dardi hijron ezdi bag'rim, naylayin shomu sabo, Shul ekan sevgan, sevishgan qismati jabru jafo. Qanchalar yozsam yurak qon, xiyla arz bo'lmas ado, Zahmati ishq dard erursa, zahmati she'rdu davo, Chunki og'uning shifosi, deydilar og'u bilan.

Bog'ladim mehning ipin ko'nglima, yot deb o'ylamang, Oshkora ishq dardim siz uyat deb o'ylamang. G'ayratini yorsiz asloki hayot deb o'ylamang, Yorni men jonim deb aytсам, iltifot deb o'ylamang, U yashar mensiz va lekin men tirikman u bilan.

Oyning o'n beshi qorong'u, o'n beshi yog'du bilan, Umrini oshiq hamisha o'tkazar orzu bilan.

Ushbu qo'shiqning matni muallifi esa 1902–1976-yillarda yashab o'tgan, Respublika o'quvchilar saroyidagi adabiyot to'garagiga rahbarlik qilib, Erkin Vohidov, Xayridin Saloh, Yusuf Shoman-

sur, Sayyor, To'lqin singari shoir va yozuvchilarning yetishib chiqishida katta hissa qo'shgan O'zbekiston xalq shoiri G'ayratiy hisoblanadi. Yanayam aniqrog'i, mazkur she'r G'ayratiyning 1968-yil-

da O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov tomonidan yozilgan: «Umrini oshiq hamisha o'tkazar orzu bilan» — deb boshlanuvchi g'azaliga bog'langan muxammasi edi.

O'z navbatida Erkin Vohidovning ushbu g'azali ham juda mashhur bo'lib, O'zbekiston xalq artisti Sherali Jo'rayevning birinchi plastinkasidagi 5 ta qo'shiq qatoriga kirgan. Yana bir qiziq ma'lumot: mashhur hofiz Sherali Jo'rayev Muhriddin Xoliqovning ham ustoz bo'lgan. U shogirdlari ichidan aynan Muhriddin Xoliqovni o'ziga juda yaqin bilgan va qadrlagan.

Ma'lumki, musiqa san'ati estetik idrokning bitmas-tuganmas manbai, inson qalbini zabt etuvchi maftunkor xilqatdir. Odamzod doimo go'zallikka intilib, uni sevib,

undan zavq-shavq olib yashaydi. Muhriddin Xoliqovdek zabardast ijodkorning diltortar xonishini yaqindagina o'zbek estradasining iste'dodli vakili Botir Qodirov yangicha talqinda kuylab, muxlislar e'tiboriga havola qildi. Zamonaviy ijroga nisbatan tezda iliq fikrlar paydo bo'la boshladi. Qo'shiqqa ishlangan videoklip YouTube tarmog'ida bir oy ichida million marotaba tomosha qilindi.

Ha, retroga aylangan, yurakdan yaralib, yuraklarni zabt etgan, tinglaganlar xayolini uzoq-uzoqlarga olib ketadigan o'lmas san'at namunalari barhayot yashayveradi. Albatta, har bir talqinning o'z umri va auditoriyasi bo'ladi. Haqiqiy bahoni esa xalq beradi.



ABROR POYONOV,
o'z muxbirimiz.

HAMKASBLARIMIZ FAOLIYATIDAN



Suratlarda: Toshkent shahar IIBB Yakkasaroy tumani IIOFMB 1-sonli IIB HPB boshlig'i, kapitan Abdusalom Rashidov (o'rtada) va hududning «Muhandislar» va «Qushbegi» MFY inspektorlari kapitan Olim Xudoyberdiyev va katta leytenant Mannon Xodiyevlar bilan ish yuzasidan muloqot paytida.



Tuman IIOFMB Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'limi boshlig'i, mayor Sarvarjon Mahmudaliyev murojaat bilan kelgan fuqaro bilan suhbatlashmoqda.

Abu KENJAYEV,
«Postda» fotomuxbiri.

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –

polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinbosarlari –

mayor Azizjon FAYZIYEV
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotiblar –

Jahongir SHAROFBOYEV
Erkin SATTOROV

Navbatchi –

Sherzod ABDUSAMADOV,
Guinoza TURG'UNBOYEVA

Sahifalovchilar –

Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –

Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari bo'yicha:

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami
h/r 23402000300100001010.

Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya
vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
470010860262877031101179001
STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'l-
yozma va suratlar egasiga
qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko'chirib bosil-
ganda manba ko'rsatilishi shart.
Gazeta tahririyat kompyuter
markazida terildi va sahifalandi.

«Kolorpak» MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Korxonaning manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^A-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda
0120-raqam bilan ro'yxatga
olingan.

Buyurtma №3017.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma
taboq. 50451 nusxada chop etildi.
Obuna raqamlari:
Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:

100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk
ko'chasi 9-uy.

